


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga ruxsat etildi”
Magistratura bo'limi boshlig'i
dotsent G.A. Doliyev
“25” “25” 2019-yil



5A120102 – Lingvistika: (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti
Sattarov Boqijon Abdumalik o'g'lining

“Leksemalarda pragmatik sema va baho munosabati”
mavzusidagi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA
ISHI

O'zbek tili kafedra mudiri:



N. Uluqov, f.f.d., professor

MDI rahbari:



Sh. Abdurahmonov, f.f. nomzodi

Namangan – 2019

MUNDARIJA

Kirish.....	2
I bob.Lisoniy bahoning til-nutq dixotomiyasiga munosabati.....	7
1.1. Tilning kommunikativ emotsional-ekspressiv xususiyati.....	7
1.2. Baho semantik kategoriya sifatida.....	13
1.3. Bahoning til va nutqqa munosabati.....	25
II bob. Fonetik va leksik sathda baho munosabatining ifodalanishi.....	34
2.1. Pragmatik sema va baho ifodalanishida fonetik birliklarning o‘rni.....	34
2.2.Shaxs bahosining mantiqiy-semantik usul bilan ifodalovchi leksik birliklar.....	46
2.3. Baho ifodalovchi morfologik,morfemik va sintaktik vositalar va unda fe’l leksemalarining o‘rni.....	54
III bob. Frazelogizm birliklarda ematsionallikning ifodalanishi.....	59
3.1. Frazelogik birliklar va ematsional leksika.....	59
3.2.Frazelogizmlarning ekspressiv, semantik-funksional va uslubiy xususiyatlari.....	64
Umumiy xulosa.....	71
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	74

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda barcha fanlar sistemaviy tadqiqot asosida rivojlanmoqda. Shu bois sistemaning umumiy xususiyatlarini o'rganuvchi alohida fan sohasi sistemaning umumiy nazariyasi maydonga keldi.

O'rganilayotgan obyektga sistema sifatida yondashuv belgi nazariyasining rivojlanishiga olib keldi, chunki obyektning sistemaviy tadqiqi unga belgi sifatida yondashuvga asoslanadi.

Sistemaviy-struktur tilshunoslik asoschisi F.de Sossyur ham tilning belgilar sistemasi ekanligini e'tirof etar ekan, lingvistik belgini ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida baholaydi¹. Bunga muvofiq har qanday lingvistik belgi shakl va mazmun planiga egadir. Lisoniy belgilarning shakl va mazmun o'zaro dialektik aloqada bo'lsa ham, ularning har biri o'z ichki tuzilishiga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, lingvistik belgining shakl tomonigina emas, balki ma'no tomoni ham ikki yoki undan ortiq mazmuniy elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan nisbiy butunlik sifatida tahlil etila boshlandi.

Ma'no muammosini hal etishda semiotikaning o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi bo'limlarining ajratilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi: 1) belgilar va ularning o'zaro bog'lanish usullarini o'rganuvchi sintaktika; 2) belgilarning o'zi ifodalayotgan obyektga munosabatini o'rganuvchi semantika; 3) qo'llanilayotgan belgiga subyektning munosabati va belgilarning bu belgidan foydalanayotgan subyektga ta'sirini o'rganuvchi pragmatika².

Pragmatik sema(ta'sirchanlik) va baho munosabatini so'zning o'z semantika tarkibida yoki ko'chma ma'noda paydo bo'lishi mumkin. Bizning yangiligimiz uning nutqiy sharoitda yuzaga kelishini yoritishdir. Bu hozir lingvokulturologiyaga ham taqaladi.

O'zbek tilshunosligida tilning turli sathlarida baho ifodalovchi vositalar tadqiqiga bagishlangan A. G'ulomov, A. Hojiyev, R. Qo'ng'urov, R. Rasulov, Y. Tojiyev, R. Hadyatullayev, Z. Ma'rufov, A. Abdullayev kabilarning asarlari mavjud bo'lsa ham, lekin shu kunga qadar baho aksiologik kategoriya sifatida

¹ Соссюр Ф.де. Труды по общему языкознанию, - М: Прогресс, 1933. – С. -19.

² Новиков А.А. Семантика русского языка – М: Высшая школа, 1982. – С. 51.

yaxlit holda monografik tadqiqot obyekti bo`lgan emas. Bu esa mavzuning hozirgi o`zbek tilshunosligi uchun dolzarb ekanligini ko`rsatadi.

Muammoning o`rganilganlik darajasi. Baho falsafiy-mantiqiy kategoriya sanalib, uning nazariy asoslanishi formal aksiologiyada o`z aksini topgan. Bu masalaga keyingi yillarda faylasuflar, mantiqshunoslar tomonidan e`tibor kuchaydi. Falsafada baho masalasi ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy nuqtayi nazardan o`rganilib, inson faoliyatining barcha turdagi ko`rinishlari, ijtimoiy munosabatlari hamda uning tarkibiga kiruvchi tabiiy holatlar baho munosabatini, baho predmetini tashkil etadiki, u yaxshilik va yomonlik, haqiqat va sarob, go`zallik va manfurlik, tasdiq va inkor, to`g`ri va noto`g`ri kabi qiymatlardan birini ifodalab keladi, - deb ta`kidlansa, mantiqshunoslar baho masalasini mantiqiy fikrlash, natija-xulosa ko`rinishida tadqiq etadilar³.

Tilga inson faoliyatining bir qismi, amaliy jarayon deb qarashning natijasi sifatida maydonga kelgan kommunikativ-pragmatik yo`nalish tadqiq obyekтини lisoniy birliklar orqali ifodalangan shaxslarning munosabati, aloqa-aralashuv jarayoni, kontekst va situatsiya kabi masalalarga qaratdiki, natijada baho semantikasi muammolarini lisoniy-mantiqiy nuqtayi nazardan tahlil qilish uchun yo`l ochdi⁴.

Bunday yo`nalishning yuzaga kelishi esa tilshunoslik uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo`lib qoldi. Baho masalasi tilshunoslikda, asosan, semantik yo`nalishda o`z ifodasini topdi va shunga ko`ra tilshunoslar ham bahoni mazmun jihatidan o`rganib, mantiqiy, falsafiy qarashlar asosida tadqiq eta boshladilar.

Ye. M. Volf bahoni funksional-semantik jihatdan tekshirsa⁵, N. D. Arutyunova tomonidan aksiologik masala falsafiy asosda olinadi va tadqiqot logik-semantik yo`nalishda olib boriladi⁶.

³ Ивин А.А. Основания логики оценок. – М: Изд-во МГУ, 1970.

⁴ Вольф Е.М. Варьирование в оценочных структурах // Семантичкои и форматное варьирование – М: Наука. 1979. – С 273-294.

⁵ Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М: Наука 1985.

⁶ Арутюнова Н.Д. Об объекта общей оценки // Вопросы языкознания – 1985 - №3 - С 13-14.

S. S. Xidikel va G. G. Kashaev tadqiqotlarida baho ifodalovchi leksik vositalarning semantik tasnifi berilgan bo'lib, ular faqat umumiste'moldagi leksemalarga e'tiborni qaratdilar⁷.

N. D. Arutyunova ikki xil nopredmet obyektini ajratishni kifoya deb biladi: jarayon (holat, xususiyat, hodisa) va faktlar (ya'ni, propositsiyalar).

Baho mazmuniy birlik sifatida tilda namoyon bo'ladi. Baho tilning barcha sath birliklari (fonologik sathdan tashqari) orqali ifodalanadi va alohida semantik maydonni tashkil etadi. Bu esa baho semantik maydonining til semantik strukturasi alohida o'rin egallashini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi. Baho masalasining mantiqiy, falsafiy jihatlariga tayangan holda tilshunoslikda baho semantikasi masalalarini yoritish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidir.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsiya oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- baho semantikasining struktur (tuzilish) aspektlarini aniqlash va ularni tahlil qilish;
- o'zbek tilida baho ifodalovchi vositalarni aniqlash;
- baho bildiruvchi leksik birliklarning birlashtiruvchi (integral) va farqlovchi (differensial) belgilarini aniqlash;
- mantiqiy va lisoniy bahoning o'zaro munosabatini yoritish;
- bahoning pragmatik jihatlarini tadqiq etish.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Til va tafakkur ajralmasdir. Shunday ekan, mantiqiy kategoriya sifatida e'tirof etuvchi va aksiologiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraluvchi baho logikasi har bir tilda o'zining turli ifoda vositalariga ega. Shuning uchun ham u lingvistik kategoriya sifatida qaralishi va lingvistikaning o'rganish obyektiga aylanmog'i lozim.

⁷ Хидикель С.С. Кашель Г.Г. Природа и характер языковых оценок // Лексические и грамматические знака 1983.

2. Baho soʻzlovchining (subyektning) bayon qilinayotgan obyektga munosabatini bildiruvchi vosita boʻlib, deyarli barcha til sathlariga xos boʻlgan hodisadir.

3. Oʻzbek tilida baho munosabati nominativ maʼno ustiga qoʻyilgan aksiologik maʼno orqali yuzaga chiqadi va turli xil vositalar orqali ifodalanadi.

4. Har qanday subyektiv baho ekstralingvistik faktorlar bilan bogʻliqdir. Mentalitet, geografik muhit, yashash tarzi, jins, yosh, kasb, urf odat, nutq soʻzlanayotgan vaqt, joy, bilim koʻnikmalari kabilar ana shunday ekstralingvistik omillar sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishiga.

Ushbu tadqiqotda baho semantikasi masalasiga funksional-paragmatik yondashuv asosida oʻzbek tilshunosligida shu davrgacha qoʻlga kiritilgan yutuqlarga tayanib, quyidagi nazariy masalalar oydinlashtirildi:

- mantiqiy va lisoniy baho masalalarining oʻxshash va farqli tomonlari aniqlandi;

- oʻzbek tilshunosligida ilk bor monografik planda baho munosabatining ifodalanish yoʻllari oʻrganildi;

- baho ifodalovchi birliklar aniqlandi va shaxs xususiyati bahosini bildiruvchi leksik birliklar semantik, pragmatik tahlil qilindi;

- baho ifodalashda diniy eʼtiqod, qadriyat, milliy mentalitet va turli ekstralingvistik asoslar bilan bogʻliq masalalar yoritildi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Olamning obyektivligini, uning doimo oʻsishda, rivojlanishda ekanligini eʼtirof etuvchi dialektik falsafa tadqiqot uchun metodologik asos boʻlib xizmat qildi.

Ishda transformatsiya, distributsiya, komponent tahlil va tavsiflash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Oʻzbek nazariy tilshunosligida baho semantikasi masalasining yoritilishi tilda baho munosabatini oʻrganish uchun asosiy nazariy omil boʻlishi, shubhasiz. Ishda lugʻaviy birliklarni baho nuqtayi nazaridan tahlil qilish, kishi xususiyatlari bahosi masalasini tadqiq etish natijasida

o`zbek tilshunosligida alohida semantik guruhlardagi baho munosabatini o`rganishga yo`nalish bo`lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari nazariy seminarlar, maxsus kurs va maxsus seminarlar uchun mavzu bo`lishi, lug`atlar tuzish uchun asos bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Ishning joriylanishi.

Tadqiqot ishining asosiy natijalari va materiallaridan oliy o`quv yurtlarining filologiya fakultetlari hamda o`rta maxsus ta`lim muassasalari talabalari uchun maxsus kurs va seminarlarni olib borishda foydalanish mumkin.

I bob. “Lisoniy bahoning til-nutq dixotomiyasiga munosabati”ga bagishlangan.

1.1. Baho mantiqiy kategoriya sifatida

Til kishilik jamiyatining ko`p yillik individual va ijtimoiy jihatdan to`plangan ma`naviy boyliklarini namoyon etuvchi eng muhim aloqa vositasidir.

Albatta, til orqali muomalaga kirishish aloqa-aralashuvda boshqa vositalarni to`la ravishda chetlab o`tmaydi, chunki aloqa-aralashuv murakkab jarayon bo`lib, inson ma`lum axborotni tinglovchiga yetkazishda tabiiy holda turli vositalardan foydalanadi.

Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgilar hisoblanadi⁸. Garchi tabiiy til tilshunoslikning yetakchi va asosiy tadqiqiy obyektini hisoblansada, u o`z o`rganuv obyektini boshqa belgilar sistemasini o`rganish bilan keygaytirishi va konkretlashtirishi kerak. Bu esa til va tafakkur munosabatini atroflicha o`rganishga da`vat etadi⁹.

Ma`lum axborot tinglovchiga turli vositalar orqali yetkazilishi mumkin: lisoniy va nolisoniy vositalar. Har qanday holda ham fikr ifodalovchi vosita belgi ekanligi bilan xarakterlanadi. Obyektiv borliqdagi narsa, predmet, harakat, belgi va boshqaning o`z tabiiy xususiyatlaridan tashqari ularga kishilar alohida nomlar berganki, u sharti belgi hisoblanadi. Masalan: obyektiv borliqda mavjud bo`lgan “tosh”ni turlicha ifodalash mumkin: tosh, камень (rus), cho`zmaga solib otiladigan narsa, shaklan har xil bo`lgan shag`al tarkibida bo`ladigan qattiq jism. Mushtni ko`rsatish bilan ham toshni ifodalash mumkin va boshqalar.

Tilni belgilar sistemasidan iborat deb tushunish, til birliklarini esa belgilarning kombinatsiyalarining hosilasi deb talqin etish nazariy tilshunoslikda keyingi yillarda keng tadqiq etila boshladi. Bu holat jahon tilshunosligidagi bir qator tilshunoslik maktablarining yirik namoyondalari Ferdinand de Sossyur, Sh. Balli, A. Meye, E. Benvenist va boshqalar ijodida o`z ifodasini topgan. Tilning belgilar majmui ekani haqidagi qarash dastavval tilni tahlil qilishning metodologik

⁸ Нурмонов А. Тил ҳақидаги синтактик назариялар.

⁹ Панфилов В.З. Взаимоотношение Т.: 1988, 2-б. языка и мышления. М.: Наука, 1971, 10 бет.

prinsiplari asosida hosil bo'lgan. Demak, belgi haqidagi nazariya tilni o'rganishda katta amaliy ahamiyat kasb etadi. "Agarda avval "belgi" nazariyasi tilning xususiy masalalaridan biri deb hisoblansa, hozirda u tilning tabiati va mohiyatini to'laligicha ifodalovchi mustaqil lingvistik konsepsiya sanaladi"¹⁰.

"Belgi" masalasi falsafa, mantiq, tilshunoslik, psixologiya va boshqa fanlarning o'rganish obyekti bo'lib, har biri unga o'z yo'nalishi asosida yondashadi.

"Belgi" ilmiy adabiyotlarda turli planda ko'rsatiladi: bu g'oyalarni, fikrni ko'rsatuvchi, ifodalovchi bo'lib, kollektivda fikr almashishida tushuncha, holat, predmetlar haqidagi tasavvurni "moddiy" ro'yobga chiqaruvchidir. Chunki belgining asosiy xususiyati o'rnini bosish vazifasini o'tashdan iboratdir¹¹.

F.de.Sossyur tilni belgilar sistemasi qatoriga kiritib, bu sohani maxsus o'rganish kerakligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, belgilar sistemasini o'rganuvchi fanning tarkibida tilshunoslik bo'lishi kerak. "Belgi" tushunchasi avvaliga faqat tabiiy til hodisasiga nisbatan berilgan bo'lsa, semiotika fan sifatida shakllangach, u bir qancha sistemalarga bo'linib ketdi.

Aloqa-aralashuvda ishtirok etuvchi noverbal vositalar lisoniy birliklar o'rnida qo'llangani yoki fikr ifodalashda yordamchi vazifani bajargani uchun belgidir. "Gapirma", "jim" so'zlari orqali beriladigan tushuncha ko'rsatkich barmoqni labga bosish orqali ham anglatilishi mumkin va suhbatdosh har ikki holda bir xil axborotni ikki xil belgi yordamida qabul qiladi. Inkor ifodalovchi yo'q so'zidan anglashilgan inkor tushunchasi bir qancha belgi orqali tinglovchiga yetkazilishi mumkin (kallani gorizontal qimirlatish, qo'lni tebratish, qo'lni betga tortish (fotiha), "yo'q" belgisi qo'yish, javob bermaslik... va boshqalar.) "Tasdiq ma'nosi 50, "yo'q" ma'nosi esa 500 dan ortiq usul bilan ifodalanishi mumkin, garchi yozuvda "ha" va "yo'q" so'zlari orqaligina ifodalansa ham" (B.Shou).

Ilmiy adabiyotlarda "belgi" tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llanadi. "Keng" ma'noda qo'langanda obyektiv borliqdagi har qanday narsa yoki boshqa tasavvurni ifodalash shakli belgi sifatida qabul qilinadi. Tor ma'noda u simvolning

¹⁰ Звагинтсев В.А. Проблемы знаковости языка. М: 1956, 3 бет.

¹¹ Ломтев Ю. А. Семиотика кино и проблемы киноэстетика. Таллин, 1973.

bir ko`rinishi deb talqin qilinadi¹². V. M. Solntsev esa belgini “shartli” va “shartsiz” deb ikkiga bo`ladi va belgi tushunchasi termin sifatida ma’lum predmetni to`g`ridan-to`g`ri bog`liq bo`lmagan holda ifodalashini anglatadi¹³, deb aytadi.

Til belgilar sistemasi ko`rinishidagi bilimlarning mavjudlik shaklidir.¹⁴ P. V. Kopninning ushbu tezisini fikr ifodalashda ishtirok etuvchi barcha vositalarga tatbiq etish mumkin.

Tilga funksional yondashish asosida axborot ifodalashdagi moddiy tomonni o`rganishga oid qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda¹⁵. Bu qarashlash asosida shuni ta’kidlash zarurki, belgi ma’lum predmetning tabiiy xususiyatidan kelib chiqmasdan ramz faoliyatida kelib chiqadigan funksional xususiyat mahsulidir¹⁶.

Tabiiy til aloqa-araashuvida ishtirok etuvchi eng boy va universal vosita sanaladi, chunki u orqali har qanday axborot suhbatdoshga yetkazilishi mumkin, lekin ba’zi hollarda tabiiy tilga yordamchi vosita sifatida boshqa simvolik vositalar ham yordamga keladi. Masalan, formal logika, matematika uchun maxsus til, tasviriy san’at tili, morze tili; dengizchilar, GAI xodimlari, sportdagi hakamlar... tili va kundalik muomala madaniyatida aloqa-aralashuv vositasi deb tan olingan imo-ishoralar tili.

Fikr ifodalashda so`zga (verbal vositaga) yordamchi ravishda turli qo`shimcha so`zsiz (noverbal) vositalar aloqa-aralashuvni amalga oshirishda o`ziga xos o`rin egallovchi faktorlardan sanaladi. Ba’zi hollarda noverbal vositalarsiz fikrlar yalang`och, mantiqiy jihatdan tushunarsiz, psixologik jihatdan noto`g`ri bo`lib qoladi.

Keyingi yillarda aloqa-aralashuvining noverbal vositalarini o`rganish rus va chet el tilshunoslarining diqqat markazida bo`lmoqda. Kishilik jamiyati tarkib topgandan buyon til bilan birga shakllangan va uni to`ldirib kelayotgan noverbal vositalar turli nuqtayi nazardan qator fanlarning o`rganish obyekti bo`lib keldi. Etnograflar noverbal vositalarni xalq, elat, millatning o`zligini ko`rsatuvchi urf-

¹² Салмина Н.С. Знак и символ в обучении М., МГУ, 1968, 11 бет.

¹³ Солнцев В.М. Язык-как системно-структурное образования. М.: 1977, 100 б.

¹⁴ Копнин П.В. Проблемы диалектики как логики и теории познания. М.: 1982, 255 бет.

¹⁵ Коршунов А., Мантатов В.В. Теория отречения и эвристическая роль знаков. М.: 1974.

¹⁶ Ильенков Э.В. Диалектика идеального. М.: 1984, 124 бет.

odatlarini, adab shakllari, milliy ishoralar deb o'rgangan bo'lsalar, tarixchilar kishilar qo'llaydigan odatiy ishora yoki udumlarni xalq tarixi bilan bog'liq holda tadqiq etadilar. Psixologlar uchun noverbal vositalar aloqa aralashuv jarayoni deb qaraladi va diologik nutq ishtirokchilari muomalasida ishlatiluvchi noverbal vosita so'zlashuvchilarning psixologik munosabatlari asosida tekshiriladi. Noverbal vositalarning aloqa-aralashuv psixologiyasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi A. Abduazizov tomonidan ham e'tirof etiladi: "Semiotika va paralingvistikaning o'rganish obyekti bo'lmish kinesika visual psixo-fiziologik hodisadir"¹⁷.

Aloqa-aralashuvda ishtirok etuvchi noverbal vositalarning moddiy tomoni kishi organlari harakatidan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra kishi organlari harakatining boshlanishi, davom etish jarayonlari fiziologlar tomonidan tekshirilmoqda.

Keyingi yillarda aloqa-aralashuvda ishtirok etuvchi vositalar (urf-odatlar, abad shakllari, udumlar, ma'lum xalq hayotida xarakteri bo'lgan yashash tarzlari) chet tillarini o'rganish va o'lkashunoslik (лингвострановедение) tarkibida tadqiq etilmoqda. Unda ma'lum xalq hayotidagi o'ziga xos xususiyatlar, shu jumladan, imo-ishoralar haqida ham fikr bildirilgan.

Aloqa-aralashuvda ishtirok etuvchi mimika, ishora, gavda harakatlari, ovozdagi turli ma'noli o'zgarishlar til sistemasiga kiradi va kishilar o'rtasidagi muomalada o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldirib keluvchi nutqiy va kinetika faoliyat aloqa-aralashuvning qismlari bo'lib, ular o'zaro bir butunlikni tashkil etadi¹⁸.

Til tarixida ham kishilar o'rtasidagi "eng muhim aloqa vositasi" bo'lgan tilga yondosh va ma'lum mazmun bildiruvchi elementlar haqida qarashlar bo'lgan (Sh. Balli, F.de Sossyur, L. P. Yakubiniskiy, Ye. D. Polivanov va boshqalar).

¹⁷ Абдуазизов А.О. Статусе паралингвистических средств и о критериях их установления, № 543, 1978, 158б.

¹⁸ Смернов Н.И. О необходимости обучения невербальному поведению при изучении иностранного языка. // Вопросы психолингвистики и преподавание русского языка как иностранного. М., МГУ 1971, 69 бет.

Rus tilshunosligida 60-yillarda axborot uzatishda qatnashuvchi, nutqiy muomala jarayonini kuzatib boruvchi¹⁹ vositalar bo`lganida boshlanadi va bu hodisa paralingvistika (gr. Para-yondosh) deb ataladi.

Paralingvistika garchi fikr ifodalashdagi noverbal vositalar haqidagi ta'limot bo`lsa-da, u verbal vosita bilan bog`liq holda tekshirilgani uchun bevosita tilshunoslikning o`rganish obyekti sanaladi.

Paralingvistikaning o`rganish obyektiga turicha qarashlar mavjud. T. M. Nikolayeva va B. A. Uspenskiylar "Nutqiy faoliyatni kuzatib boruvchi barcha holatlar paralingvistikaning o`rganish obyektiga kiradi", - deydilar va tovush, ishoralar, grafika orqali fikr ifodalashni misol keltiradilar²⁰.

Mualliflar boshqa asarlarida yuqoridagi fikrlarni davom ettirib, paralingvistikaga til bilan bevosita aloqada bo`luvchi nutqning balandligi, ritmi, tezligi kabi hodisalarni, faqat nutq jarayonida ma'no ifodalovchi, alohida olinganda mazmun bildirmaydigan kinetik harakatlarni (bosh qimirlatmoq) hamda verbal vositalarsiz ham o`z ma'nosini saqlab qoluvchi yig`i, kulgu, xo`rsinish kabi hodisalarni kiritadilar²¹.

M. G. Veyze: "Aloqaning noverbal marker jumlasiga raqamlar, harflar, raqam va harflar, paragraf tilidagi belgilar²² kiradi", - deb aytadi

V. G. Kolshanskiy "Paralingvistik vositalar subyektning verbal (so`zli) kommunikatsiyasining chala tomonlarini to`ldiradigan aloqa-aralashuv bo`limchasidir"²³, -deb aytadi va paralingvistika konkret nutq ifodasini shakllantiruvchi noverbal vositalarni funksional o`rganuvchi tilshunoslikning yordamchi sohasi ekanini ta'kidlaydi²⁴.

I. N. Gorelov paralingvistikaning o`rganish obyekti xususida asosan G. V. Kolshanskiy qarashlarini ma'qullaydi: doimo nutqiy aloqa-aralashuvda ishtirok

¹⁹ Колшанский Г.В. Паралингвистика. М.: Наука, 1974, 6 бет.

²⁰ Николаева Т.М., Успенский Б.А. Ретсензии о новых работах паралингвистики // Вопросы языко знания. 1965, №6, 118 бет.

²¹ Николаева Т.М., Успенский Б.А. Языкознания и паралингвистика // Сборник "Лингвистические исследования по общей и славенской типологии". М.: Науки 1966, 74 стр.

²² Войзе М.Г. Вербальные и невербальные маркеры связи в тексте научной статьи // Сборник научных трудов. МГПИИЯ. № 160, М: 82 стр.

²³ Колшанский Г.В. Паралингвистика М.: Наука, 1974 6 бет.

²⁴ Колшанский Г.В. Юқоридаги асар 20 бет.

etuvchi paralingvistik vositalarni til va tafakkur nuqtayi nazaridan o`rganish maqsadga muvofiqdir²⁵, aloqa-aralashuvda ishtirok etuvchi barcha supersegment vositalar va imo-ishoralar hamda mimikalar paralingvistika doirasiga kiradi²⁶.

Aloqa-aralashuvning paralingvistik vositalari funksional tilshunoslikning obykti sifatida talqin qilinib, qator ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo`lib xizmat qilmoqda. Aloqa-aralashuvning noverbal vositalari rus tilshunosligida turli aspektlarda o`rganilmoqda, turli metodlarda ko`rib chiqilmoqda. Paralingvistikani tilshunoslikning yo`nalishi sifatida monografik mazmunda G. V. Kolshanskiy tadqiq etgan bo`lsa²⁷, bu asarni nazariy asos qilib, bir qancha asarlar yaratildi; paralingvistik vositalar parapsixolingvistik yo`nalishda²⁸, psixologik aspektda tadqiq etildi²⁹.

Paralingvistika va tilshunoslik o`zaro bog`liq hodisalardir. Tildagi noverbal vositalar mavjud verbal vositalar bilan organik bog`liq ravishda tekshiriladi. "Aloqa-aralashuvda axborot til va tildan tashqari faktorlarga asoslanishi kerak"³⁰. Tilshunoslikning rivojlanishidagi hozirgi davr tilni tor doirada tahlil qilish bilan umumiy aloqa vazifasini bajaruvchi verbal va noverbal vositalarni o`zaro aloqador ko`rinishda o`rganishning qo`llanishi natijasida yangi yo`nalish va usullar hosil bo`lish davridir. Bu esa tilshunoslikda kishilik jamiyatining aloqa-aralashuvini o`rganuvchi yangi ilmiy yo`nalishlarning hosil bo`lishiga, boshqa fanlar yoki fan bo`limlari bilan aloqador bo`lishiga asos bo`ladi.

Baho subyekti deganda, ma`lum predmetni o`z nuqtayi nazaridan yoki boshqa predmetga qiyosan baholovchi shaxs tushuniladi. Har qanday shaxsning o`z nazdi bo`yicha predmetni his etishi, u haqida o`z munosabatini bildirishi shaxs

²⁵ Горелов И.В. Невербальные компоненты коммуникации. М.: Наука, 1980, 5 бет.

²⁶ Нурмонов А.Н. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. А., 1980, 7 бет.

²⁷ Колшанский Г.В. Юқоридаги асар.

²⁸ Горелов И.В. Юқоридаги асар.

²⁹ Вальшнер Я., Миккин К. Невербальная коммуникация в дядях // Труды по психологии. Тарту.: ТГУ, 1974.

³⁰ Колшанский Г.В. Юқоридаги асар. 5 бет; Николаева Т.М., Успенский В.А. Языкознание и паралингвистика // Сборник "Лингвистические исследование по общей и славянской типологии". М.: Наука, 1966, 74 бет.

Ходина Н.Т. Экстралингвистические и лингвистические факторы лексической сочетаемости. АКД. Саратов 1982; Колшанский Г.В. Функции паралингвистических средств в языковой коммуникации // Вопросы языкознания, 1973. 1.

bahosidir. Shaxs bahosi aksariyat hollarda individual xususiyat kasb etadi, ba'zan umumlashgan bo'lishi ham mumkin.

Masalan: Mingboshi kuldi: Esingga qoyilman, betavfiq! Shuncha esing bor-u, namoz o'qimaysan! (Cho'pon) Mingboshining Miryoqubga "eslisan" deyishi individual baho sanalib, ijobiy bahoni yuzaga keltirgan va u subyektning, ya'ni mingboshining Miryoqubga munosabati nuqtayi nazaridan kelib chiqqan baho hisoblanadi.

Baholashga asos bo'ladigan predmet (obyekt) deyilganda, baholovchi shaxs uchun asos bo'lgan narsa tushuniladi va uning ma'lum holatda, makonda, zamonda tutgan o'rni ahamiyatlidir. Obyekt bahosi narsaning qiymati sanaladi. Masalan: "Dilmurodjon abjir va uddaburon" gapida Dimurodjon obyekt, uning abjir va uddaburon ekanligi xususiyati – bahosi sanaladi.

Ko'rinib turibdiki, xususiyat predmetning qanday ekanini ifoda etadi va o'sha xususiyat orqali predmetning bahosi aniqlanadi. Shu o'rinda subyekt o'z xohishiga ko'ra baholayotgan obyektini turli xususiyatga ega deb ko'rsatish mumkin. Masalan: Bu orada ancha fursat o'tgan, shekilli, akam koyinadi: "Nega kutvolish o'rniga qoqqan qoziqdek qaqqayib turibsən, yo bemavrid keldimmi?.." – sevinchimdən "Dod!" devoraman. "Qoqqan qoziqqa o'xshashlik shunchalik yaxshimi?" – hayolimda kechadi. (Ulug'bek Hamdam)

Ukasi qishloqdan kelgan akasini ko'rib, oradan ancha muddat o'tguncha quvonchdan, xursandchiligidan jo'shib, zavqlanib, akasi bilan so'rashmay turib qoladi. Bu o'rinda qoqqan qoziqqa o'xshatishni aka salbiy munosabat bahosi sifatida qo'llasa, ukasi ijobiy baho ko'rinishda tasavvur qiladi.

Har qanday predmet baholanganda, u mavjud asosga, etalonga nisbatan olinadi. Baho qiyoslashdan ajralmasdir. Shunday ekan, baho chog'ishtiruv asosida ro'yobga chiqadi. Qiyosiy bahoda eng kami ikki predmet o'zaro qiyoslanadi. Qiyoslanish ochiq yashirin tarzda bayon qilinadi. Bu xususiyat shakllanishi, o'zgarishi mumkin, shunga ko'ra o'sha predmet bahosi ham ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan: Endi ularning ko'zlarida g'azab emas, tuhmat balosiga duchor bo'lgan bir bechoraga shafqatga o'xshash bir narsa paydo bo'ldi.

Bu o`rinda asar qahramoni To`lajonning kishilarga baho berish jarayoni tasvirlangan: avval unga g`azab ko`zi bilan qarayotgan kishilarning ko`zlarida endilikda shafqat paydo bo`layotgan baho berishga asos bo`lgan etalon o`zgarganligini ko`rsatadi. Natijada salbiy baholanayotgan obyekt endi subyekt nazdida ijobiy bahoga ega bo`lmoqda. Baho berilayotgan payt (zamon) ijtimoiy muhit pragmatik asos o`zgarishiga sabab bo`lmoqda.

Baho xarakteriga ko`ra obyektiv va subyektiv bo`lishi mumkin.

Obyektiv baho-predmet tasavvur etilgandayoq his qilinishi mumkin bo`lgan baho shakli hisoblanadi. Obyektiv bahoda kishilik jamiyati tomonidan qabul qilingan umuminsoniy o`lchovlarga javob bera oladigan me`yor mavjud bo`ladi yoki u ma`lum bir xalq uchungina xos bo`lgan xususiyatlar orqali oydinlashadi, ijtimoiylik kasb etib qoladi.

Xalqimiz udumlariga ko`ra, chopon kiyish, do`ppi kiyish, belga belbog` bog`lash yigit kishining g`ururi, iftixorini belgilovchi o`lchov sanaladi. “Boy ila xizmatchi” asaridan olingan quyidagi ko`rinishga e`tibor beraylik:

G`ofur: Ellikboshi, paranjingiz muborak!

Xasan: Paranji emas! Chopon bu, jinni bo`lganmi?

G`ofur: Axir dallol deganda paranji bo`ladi-da, choponni yigit kishi kiyadi!

(Hamza)

Demak, xalqning o`ziga xos bo`lgan udumlari, milliy kiyimlari, urf-odatlarini, genoseologik xususiyatlari ham shaxslarga baho berish uchun lingvistik va ekstralingvistik asos bo`lib, mutlaq bahoni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Obyektiv baho davr o`tishi bilan o`zgarishi mumkin. Masalan, hozirgi kunda choponni to`y, a`zada yoki yoshi ulug` kishilar tomonidagina kiyiladigan bo`lib qoldi.

Subyektiv baho-subyektning baholanayotgan shaxs yoki predmetga munosabati asosida yuzaga keladi. Bunda subyektning yoshi, jinsi, dunyoqarashi, bilimi, e`tiqodi va yana qator omillar ahamiyatli sanaladi. Baho berishning bu shaklida har bir subyekt o`z nuqtayi nazari bo`yicha hukm chiqaradi. Shuning uchun ko`p hollarda bir obyektning turlicha baholanish holatlari uchrab turadi.

Masalan: Kundoshlar bir-biriga dushman bo`ladi, degan gap bekor ekan. Opa-singildek yashashyapti. (S. Ahmad)

Mantiqiy va lisoniy jihatdan baho munosabatlari o`zaro aloqador va biri ikkinchisini taqozo etadi. Mantiqiy bahoning oydinlashuvi lisoniy vositalar orqali amalga oshadi. Obyektiv baho semantik jihatdan qat`iy shakl orqali amalga oshadi. Obyektiv baho semantik jihatdan qat`iy shakl asosida ro`yobga chiqadi. Shunga ko`ra baho tushunchasi ratsional me`yor asosida olinadi va baho munosabati ifoda etadigan tushuncha me`yor sifatida baholanadi: odil (ijobiy), johil (salbiy), dono (ijobiy), ahmoq (salbiy) kabi. Pragmatik baho me`yori hosil qilingan amaliyot asosida aniqlanadi hamda u ekstralingvistik omillarga asoslanadi. Semantik me`yor ko`p aspektli bo`lib, mantiqiy munosabat (borliqdagi haqiqiy denotativ baho ma`nosi va individning bunga munosabati) ga aloqadordir. Bahoni ifodalanishida ma`lum predmet bahosi davriy o`zaro zid munosabatlarni ifodalashi mumkin yoki baho munosabati turli individlar tomonidan o`z nuqtayi nazariga ko`ra o`zaro qarama-qarshi baho munosabatini ifodalab kelishi mumkin. Masalan: Yozuvchi dilni dilga payvandlagan lahza tasvirida so`zga xasislik qilardi. (D. Quronov)

Demak, baho mantiqiy kategoriya sifatida mantiq fanining o`rganish obyektiga kiradi. Mantiq bahoning o`ziga xos elementlarini tekshirish jarayonida falsafa, psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, tilshunoslik kabi sohalar bilan aloqada bo`ladi. Shunga ko`ra, hozirda mantiq bahoning umumiy qonuniyatlarini o`rganib, mantiqiy baho nazariyasini ishlab chiqish bilan shug`ullanadi. Ayni paytda bu nazariya falsafiy, psixologik, sotsial, lingvistik, iqtisodiy baho tushunchasi uchun asos bo`lib xizmat qiladi va u har bir fanga o`z muammolarini yechishda manba sanaladi.

1.2. Baho semantik kategoriya sifatida

Har qanday mantiqiy munosabat til birliklari orqali ifodalanadi. Shu qatorda baho munosabatlari, ularning obyektiv borliqda mavjudligi, tushuncha sifatida inson ongida paydo bo`lishi, uning turlari, me`zonlari kabi masalalar aksiologik muammo bo`lib, faylasuf va mantiqshunoslarning o`rganish obyekti sanalsa,

bahoning tilda namoyon bo`lishi uning ifodalovchi fonetik, leksik, morfologik, sintaktik, paralingvistik vositalar, baho semantikasi kabi masalalar tilshunoslar tomonidan o`rganiladi³¹, tilda sifat darajalari, sinonim so`zlardagi ma'no noziklari mavjuddir. Agar voqelikda inkor va tasdiq, ijobiy va salbiy munosabatlar mavjud bo`lsa, tilda inkor va tasdiq gaplar, bo`lishli va bo`lishsiz, ijobiy va salbiy bo`yoqdorlik, antonim, aksyumoron munosabatlar mavjuddir. Baho munosabatlari mantiq va tilshunoslik fanlarining o`zaro dialektik aloqasi asosida o`rganiladi.

Baho munosabatining lisoniy tomoni semantik strukturada o`z ifodasini topadi.

Mazmun planining yo`nalishi bo`lmish baho turli til sathlarida namoyon bo`lishi mumkin. Bu haqda R. Qo`ng`urov o`z qarashlarini bayon etib, shunday deydi: “Ijobiy yoki salbiy munosabat turli xil formalar (morfologik), ayrim (shu o`rinda ayrim so`zlar emas, ko`plab so`zlar baho ifodalash imkoniyatiga ega ekanligini ta`kidlash joiz – G`.Q) so`zlar (leksik), konstruksiyalar (sintaktik), forma va so`zning qo`shilishi (leksik-morfologik), intonatsiya (fonetik) yordamida ifodalanadi”³². Ular so`zlardan kichik birliklar orqali, shuningdek, so`zlar, so`zlardan katta birliklar orqali va hattoki supersegment vositalar yordamida ifodalanadi, bu jarayon noverbal vositalar orqali ham amalga oshishi mumkin bo`ladi. So`zlovchi o`zining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildirishda qo`shimcha jest va mumikalardan ham foydalanadi.

Ishoralar o`zbek aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi vositalardan biridir. Inson so`zlashuv jarayonida o`z fikrini imkon qadar tez, qisqa vaqt ichida, nutq organlarini kam ishlatgan holda, tushunarli, ta`sirchan, bo`yoqdor qilib yetkazishga xarakat qiladi. Shu o`rinda fikr almashuvda ishoralar ahamiyatli sanaladi.

O`zbeklar aloqa-aralashuvida ishlatiluvchi ishoralar kishining ma`lum organlari (bosh, qo`l, yelka, ko`z, qosh va boshqalar) xarakati orqali ifodalanadi va o`zbek so`zlashuv jarayonining bir qismi sanaladi.

Qo`l harakati orqali fikr almashuv soqovlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin. Soqovlar tilida imo-ishoralar asosiy aloqa vositasi hisoblanadi.

³¹ Қаранг: Ивин А.А. Основа логики оценок – М.: Изд-во МГУ, 1970.

³² Қаранг: Кўнгуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари – Т: Фан, 1980.

Va ularning qo`l harakatlari kodlangan til sanaladi. Shunga ko`ra, bu hodisa (soqovlar tili) bizning o`rganish obyektimizga kirmaydi, balki ushbu tadqiqotda omma uchun xarakterli bo`lgan, aloqa-aralashuv jarayonida qo`llaniladigan va tushunarli bo`lgan imo-ishoralar xususida fikr yuritiladi.

Har qanday ifoda mantiqiy mazmun va emotsional-ekspressiv munosabatning sintezidan iborat va uning ifoda shakli emotsional semantikani bildiradi. Buni ro`yobga chiqaruvchi vositalarga esa avvalambor ishoralar, mimika va boshqalar kiradi.

Ishora so`zining ma`nosi, ishlatilish chegarasi, u anglatgan kinema ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. Ishora (jest) ning hozirga qadar barcha uchun tushunarli bo`lgan ta`rifi yo`q, rus ilmiy ishoralar fondi aniqlanmagan. Aloqa-aralashuvda ahamiyatli bo`lgan rus ishoralar sistemasi ishlab chiqilmagan. Shuning natijasida bo`lsa kerak, ilmiy adabiyotlarda ishora (jest) ma`nosi 2 xil tarzda talqin qilinadi. Birinchi guruhdagi olimlar “ishora”ni keng ma`noda tushunib, aloqa-aralashuvda qatnashuvchi barcha yordamchi vositalarni uning tarkibiga kiritadilar. Ikkinchi guruhdagilar esa “ishora”ni tor doirada tahlil qilib, kishining badan harakatlari bilan bog`liq ekanini aytadilar. L. A. Kapanidze va Ye. V. Karasilnikovlar: “kommunikativ xarakter kasb etuvchi shartli kinetik akt-ishora (jest) dir”, deyдилar va ishora ma`nosini birmuncha umumlashtirgan holda ifoda etadilar.

Ularning qarashicha, “ishora” (jest) aloqa jarayonini amalga oshiruvchi umumiy vosita, bu vositaning ro`yobga chiqishi aloqa-aralashuv jarayonidan qidirilishi kerak va shu nuqtayi nazardan tahlil qilinishi maqsadga muvofiq bo`ladi. L. M. Shelgunova “ishora” (jest) tushunchasidan nafaqat mimika hamda kinemalarni, balki boshqa supersegment vositalarni intonatsiyani, axborot berishda ishlatuvchi ba`zi imo-ishoraviy – intonatsiyani holatlarni, mazmun ifodalovchi hissiy va ruhiy jarayonlarni tushunishni aytadi va bu bilan “ishora” (jest) termini “noverbal vositalar” tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Aloqa-aralashuvda nutqni turli jihatdan to`ldirib keluvchi qator noverbal vositalar kompleks ravishda ishlatilsada, ishora (jest), mimika va boshqa fizik va biologik ishoralar nutq

jarayonida faol ishlatiluvchi, atamalik vazifasini bajaruvchi, lisoniy jihatdan muqim soʻzlar umumlashmasidan iborat boʻlgan kishining maʼlum harakati orqali aloqa-aralashuvda axborot bilan qatnashuvchi noverbal vosita jumlasiga kiradi. Ishoralar maʼlum maʼno anglatuvchi badan harakatlari boʻlib, tinglovchi uchun axborot berishda ishlatiladi.

“Jest” – imo va ishora – kishi organlari bilan qilingan belgini bildirib, qadimdan aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi vosita sifatida qoʻllanadi. “Devonu lugʻatit turk” da im – им, imladi – имлади soʻzlari “belgi qilmoq”, “ishora qilmoq”, “koʻzni qismoq” kabi maʼnolarni ifodalash uchun ishlatilgan. Boshqa manbalarda ham mimika va ishoralar “ belgi qilmoq” maʼnosida ishlatiladi.

Eski oʻzbek tilida ishorat arabcha (belgi, koʻrsatma yoʻl-yoʻriq maʼnolarida ishlatilgan. *Ishorat qildi, Xusrav* (Xusrav va Shirin). Demakki, ishora va imo orqali uzatilayotgan axborotga qoʻshimcha mazmun berish yoki u orqali toʻlalligicha fikr ifodalash qadimdan mavjud boʻlgan va ular oʻz ifodasini maʼlum asar va lugʻatlarda topgan.

Biz ushbu ishda “ishora” soʻzidan termin sifatida foydalanib keng va tor maʼnolarda ishlatdik. Keng maʼnoda ishlatilganda “ishora” noverbal vositalarga teng boʻlib uning oʻrganish obyektiga aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi, fikr ifodalashga yoki tushuncha bildirishga xizmat qiluvchi barcha vositalar kiritildi. Tor maʼnoda ishlatilganda esa “ishora” mimik noverbal vositalarga qarama-qarshi ravishda kinetik noverbal vositalarni bildirib keladi.

Baho semantik kategoriya sifatida tilshunoslikning tekshirish obyektiga kiradi. Baho tilshunoslikda semantik kategoriya sifatida semasiologik va onomasiologik tahlil etiladi. Bunday

tahlil etishda bahoning semantik elementlari eʼtiborga olinadi. Shu jihatdan bahoni yuzaga keltiruvchi birliklar qaysi sathga (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va hatto ekstralingvistik unsurlar va boshqalar) mansub boʻlishidan qatʼiy nazar, ularning maʼno qirralari tahlilqa tortiladi. Tahlil jarayonida subyekt va

obyekt o`rtasidagi shartnomaviy munosabatni e`tiborga olib ish ko`rish muhim ahamiyatga ega.

1.3. Bahoning til va nutqqa munosabati

Baho obyektiv jihatdan til sathida imkoniyat tarzida mavjud bo`ladi va u nutq orqali voqelanadi. Tilda obyektiv bo`lgan baho nutqda subyektivlik kasb etadi. Baho so`zlovchi va tinglovchining umumiy bilish fondi asosida xususiy tarzda qabul qilinadi va u muayyan nutqiy vaziyat uchungina mos bo`ladi. Masalan, bir rivoyatda chol o`z qizining yigitga *ko`zi ko`r, qulog`i kar, oyog`i cho`loq, tili soqov* deb ta`riflaydi. Bo`lajak kuyov berilgan bahoni to`g`ri ma`noda tushunib, qayg`uga botadi. Keyinroq ma`lum bo`lishicha, kelin jismonan bekam-u ko`st ekan. Qiz otasining bergan ta`rifini: *ko`zining ko`rligini* – nomahramga nazar solmagani, *qulug`ining karligini* – yomon so`zlarni eshitmagani, *cho`loqligini* – yomon joylarga bormagani, *soqovligini* – yomon so`zlarni aytmashligi bilan izohlaydi.

Noverbal vositalarning aloqa-aralashuvda ishlatilishi tilning rivojlanish jarayonida o`ziga xos omil sanaladi. Garchi noverbal vositalar fikr ifodalashda qatnashsa-da, ular til strukturasi kirmaydi, chunki aloqa-aralashuvning noverbal vositalari tildan tashqaridagi, unga yondosh holat bo`lib, til sistemasi hamisha ichki faktorlar asosida rivojlanadi. Til sistemasi hamisha har qanday fikr mazmunini, his-hayajonlarni va boshqa ichki tug`yonlarni ifodalash qudratiga ega. Lekin shunga ko`ra, qaramay aloqa-aralashuvda inson beixtiyor noverbal vositaardan foydalanadi, chunki nutq jarayoni, dialogik vaziyat va so`zlashuvchilarning psixologik holati fikr ifodalashda imo-ishoradan, tovush o`zgarishlaridan, badan harakatlaridan foydalanishga taqozo etadi. Aloqa-aralashuvning amalga oshishi jihatidan o`zbeklarda noverbal vositalar quyidagi vaziyatlarda ishlatilishi mumkin:

a) aloqa-aralashuvda ishtirok etayotgan tomonlarning aloqa tillari birlariga tushunarsiz bo`lsa, kommunikantlar muomalada turli ishoralardan foydalanadilar.

U bir vaqtlar Yerda yashagan qabilalar til chiqarib salomlashganini esladi-da, darrov tilini chiqarib jilmaydi. (O. Yusupov. “Quyoshdan tushgan odamlar”)

Aloqa-aralashuv jarayonini yuzaga chiqaruvchi nutqiy vosita soʻzlovchi va tinglovchiga tushunarli boʻlmagani uchun fikr ifodalashda koʻp holda tarjimaga muhtoj boʻlmagan noverbaal vositalardan foydalaniladi. Buning uchun umuminsoniy xarakter kasb etuvchi ishoralar, adab shakllari hamda tinglovchiga tushunarli boʻlgan tasviriy noverbal vositalar yordamga keladi. Tasdiq va inkor mazmuni noverbal jihatdan boshning vertikal va gorizantal harakati asosida ifoda etilishi jahondagi koʻp xalqlar uchun mushtarak hodisadir. Bu esa noverbal vositalar nutqiy fikr almashinuvga tengdir. Shu bilan birga, ishoralar belgi sifatida koʻp tillar uchun verbal vositaga qaraganda umumlashgan ekanini bildiradi. Natijada fikr almashuvda birlamchi vositalar kommunikantlar uchun oʻzaro tushunarsiz boʻlgan holda noverbal vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

Oqsoqol kosmomobil tomon bosh irgʻab necha kishi ekanliklarini soʻradi.

- *Men bilan 10 kishimiz, - ikki qoʻlining panjalarini juftladi Zaydoniy (O. Yusupov);*

b) aloqa-aralashuv jarayonining yuzaga chiqishi uchun toʻsqinlik holati boʻlganda ham suhbatdoshlar noverbal vositalardan foydalanadilar. Bunday toʻsqinlik vaziyat bilan bogʻliq boʻladi. Maʼlum axborotni uzatish jarayonida suhbatdoshlar uchun fikr almashishga sharoit boʻlmasligi mumkin: aloqa-aralashuv shovqin yoki boshqa sababga koʻra nutqiy shaklda amalga oshirilmaydi, soʻzlovchi axborotni uzatish jarayonida sabablar, faktorlar ahamiyatli boʻladi va boshqa holatlarda noverbal vositalardan foydalaniladi.

Noverbal vositalardan foydalanishda real maʼkon, zamon va predmetlikning yigʻindisini bildiruvchi holat aloqa-aralashuvning asosini tashkil qiladi³³.

Dalavoy piyolani aylantirib-aylantirib choy hoʻplarkan, menga qarab koʻzini qisdi;

- *qalay, polvon!*

Uyalganimdan yerga qarab oldim.

³³ Қаранг: Колшанский Г.В. Паралингвистика М.: 1974, 59 бет.

- *Nega xabar bermadilaring? – ta’na qildi u. – Keyin muncha shoshildilaring?*

- *Iskandar akaning gapini ikkita qilmang dedik – dedi Hafiza va qaynonasiga ma’nodor qarab qo’ydi. (O’. Umarbekov).*

Yuqorida keltirilgan misollardan shu narsa ayonki, matn parchasidagi ishoralarning ma’nosini anglab olish uchun voqea tafsilotlaridan xabardor bo’lish kerak. Aks holda “Dalavoyning ko’z qisishidan”, “Hafizaning ma’nodor ko’z qarashidan” qanday fikr ifodalanayotganini tushunish qiyin. Nutq jarayonida noverbal vosita ifoda etayotgan ma’no holat bilan bog’liq bo’lsa, uning verballashgan ifodasida konsituatsiya asosiy rol o’ynaydi. Fikr almashuvda nutqiy muomala jarayonida holatning ahamiyatli ekanini V. V. Vinogradov ham alohida qayd etib o’tadi.

Noverbal vosita va holat fikrning ro’yobga chiqishida o’zaro bog’liq holda bo’ladi. Bunda holat noverbal vosita asosida reallashgani uchun ikkilamchi faktor sanaladi;

c) aloqa-aralashuvning bevosita ishtirokchilari o’zaro fikr almashish jarayonida fikrni boshqalarga sezdirmaslik uchun noverbal vositalardan foydalanadilar. Bu o’rinda aloqa-aralashuv jarayoni kommunikativ aktda qatnashayotgan ikki shaxs – so’zlovchi va tinglovchi uchun tushunarli bo’ladi.

Kotiba qizga qoshlarini chimirib “nima gap” deganday bosh irg’adi. Lena yelkasini uchirdi.

Bu jumlada so’zlovchi va tinglovchi o’rtasidagi fikrlashuv boshqa shaxslar uchun tushunarsiz va hatto ular bu muomaladan bexabar ham bo’lishlari mumkin. Yuqoridagi matnda dialog noverbal yo’l bilan amalga oshirilmoqda. Kotibaning “nima gap bo’layotir?” degan savoliga Lena: “Men bexabarman”, deb javob bermoqda va mana shu almashuv kommunikantlar tomonidan o’zgalarga bildirmagan holda kalla va yelka harakatlari bilan amalga oshirilmoqda. Noverbal vosita kompensatsion xarakter kasb etmoqda;

d) aloqa-aralashuvda qatnashayotgan tomonlardan birining subyektiv holati sababli noverbal vosita ishlatiladi. Subyektning o’z fikrini nutqiy bayon

qilishga imkoniyati bo'lmashligi (betobligi, gapirish imkoniyati yo'qligi, suhbatdooshini mensimasligi va boshqa holatlar) natijasida u turli noverbal vositalar bilan aloqaga kirishadi.

- *Tura qoling, ammajon, - Saodatxon Sobira ammani suyarkan, amma qo'yaver, o'zim kiraman, deganday qo'li bilan ishora qildi* (E. Raimov).

Matnda Sobira ammaning holati fikrni ishora orqali yetkazishini taqozo etmoqda.

Fikr ifodalashda minimal vaqt va kuch sarflash asosida inson noverbal vositalarni ishlatadi va ma'lum ma'noda aloqa-aralashuvda mavhumlikni keltirib chiqaradi. Lekin holat va sharoitdan kelib chiqqan holda suhbatdoshlar o'zaro fikr almashuvda tushunarli bo'lgan aloqa kodlaridan foydalanadilar. O'ta hayajonlanish, ortiqcha harakatlanish natijasida ham nutqiy fikrni noverbal vosita kompensatsiya qilish mumkin:

- *Dezirtir*

- *Qani? – deb so'radi to'pponchalik ofitser.*

Saylixon nafasini rostlay olmay harsilladi. U qo'li bilan kun chiqish tomonga ishora qildi (S. Anorboyev).

Qo'li bilan kun chiqish tomonga qilingan ko'rsatuv ishorasi savolga umumiy yo'nalishni ko'rsatib javob bermoqda (mavhum) va shu ishora adresati uzatilayotgan axborotdan qoniqmasa, aloqa-aralashuv jarayoni yana davom ettirilishi mumkin.

Cholning gapiga quloq solib turgan kampir qo'llarini chaqqon harakatga solib, qandaydir imo-ishoralar bilan kuyib-pishib bir narsalarni tushuntira boshladi (J. Abdullaxonov);

e) nutqning ishonarli, ta'sirchan, bo'yoqdor bo'lishini ta'minlashda ham noverbal vositalar ishlatiladi. Kinetik usul nutqni mazmun jihatdan aniq va yaqqol ifoda etishga yordam beradi va shu bilan birga, u modallik berishning eng samarali usuli hisoblanadi. Shunga ko'ra, nutqning funksional uslubi xarakteriga, aloqa-aralashuv ishtirokchilarining o'zaro munosabatiga ko'ra, suhbatdoshlarning sotsial holati, kasbi, mansabi, aloqa-aralashuv jarayoni yuzaga chiqayotgan sharoit va

boshqa sabablarga ko`ra nutqiy jarayon noverbal vosita bilan kuzatilishi yoki kompensatsiya qilinishi mumkin.

Fikr ifodalash subyektning nutqiy faoliyati natijasidir. Shuning uchun aloqa-aralashuvda so`zlovchi va tinglovchining nutqiy jarayonni shakllantirishdagi o`ziga xosligi yaqqol namoyon bo`ladi.

Yuqoridagilardan tashqari turli kommunikativ harakatlar borki, ular verbal vositani to`ldirishi, kompensatsiya qilishi mumkin.

- *E, qo`ysangiz-chi, bir payola choy iching. Boorish bo`lsa qochmas.*

- *Uzr! – Abdulhaq aka iljayib ikki qo`lini qorniga qo`ydi...*

- *Xo`jayin darrov kelgin, degandilar.*

Umidjon “he” deb boshini chayqadi-da uyga kirib ketdi.

- *Ha kim ekan? – dedi oshxonada kuymalanayotgan Sobira amma.*

- *Aytvoribdilar, – Umidjon qaynotam deyishga iymajib qoqdi.*

- *Kim?*

- *Zuhraning dadasi (E. Raimov).*

Ushbu matndagi ishoralar aloqa-aralashuvda kompensatsion rol o`ynamasada, fikrni to`ldirib, muomala jarayonini butunlashtirib kelishda ahamiyatli sanaladi. Ikki qo`lini qorniga qo`yish “tavoze”, “hurmat”, “minnatdorchilik” ma`nolarini: boshini chayqash “norozilik”, “hayratlanish” ma`nolarini bildirsa, im qoqish “ko`rsatish”, “ishora qilish” kinematik ma`nosini ifodalaydi.

N. I. Smirnov vrach bilan bemorning besh minutlik muloqoti davrida ular noverbal vositaning o`n ikki xilini ishlatishganini aytadi va bu muomala avvaldan rejalashtirilmagan tabiiy, aloqa-aralashuvdagi normal sotsial holat ekanini ta`kidlaydi.

Ishoralar kommunikativ vazifasiga ko`ra turlicha bo`lishi mumkin. O`zbeklarda so`zlashuv jarayonida ishlatiluvchi noverbal vositalar uch xil vazifa bajaradi:

1. Verbal ifodaning o`rnida qo`llanuvchi noverbal vositalar.
2. Verbal ifodani kuzatuvchi, to`ldiruvchi noverbal vositalar.
3. Verbal vositalar bilan birga ishlatilib keluvchi noverbal vositalar.

Verbal ifodaning o`rnida qo`llanuvchi noverbal vositalar muomala jarayonida nutqiy jarayonni kompensatsiya qilish uchun ishlatilib, substitutsion rol o`ynaydi. Lisoniy va nolisoniy faktorlarning umumlashishi aloqa-aralashuv holatidan kelib chiqadi.

- *Bir savolga ijozat bering, hazratim, – dedi.*

- *Marhamat*

- *Ra`no Sinx bilan ham ittifoq tuzdingizmi?*

Bobur tasdiq ma`nosida bosh irg`adi. (P. Qodirov)

Verbal ifodani kuzatib boruvchi noverbal vositalar ko`proq ekspressiv-stilistik ma`noni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

- *E, men buzdillardan emasman! – dedi Ahmad tanbal qahr bilan (P. Qodirov).*

Qahr bilan ifodasi orqali Ahmad tanbalning kayfiyati (yomon), xarakteri (mag`rur), xususiyati (tez achchig`i keladigan, ta`sirlanuvchi) haqida ma`lumot olish mumkin va bu ekspressivlik ifodalovchi vosita sanaladi. Qiyos qiling:

- *E, men buzdillardan emasman! – dedi Ahmad tanbal bosiqlik bilan...*

- *E, men buzdillardan emasman! – dedi xursandlik bilan...*

Verbal vositalar bilan birga ishlatiluvchi noverbal vositalar izohlash, aniqlash, ta`kidlash kabi ma`nolarni bildirib, aralash holda qo`llanadi.

Aloqa-aralashuvda noverbal vositalarning ishlatilishi tabiiy psixologik holda amalga oshiriladi. Noverbal vosita nutqiy birliklarning o`rnida ishlatilganda ham, bu holat “ekonomiya” asosiga qurilmaydi va umuman dialogik jarayondagi ishora muomala jarayonining tabiiy vazifalaridan sanaladi. Shuning uchun aloqa-aralashuvda nutqiy aloqa noverbal vosita bilan birgalikda qo`llanadi va biri ikkinchisini takrorlasa-da, muomalada bu holat normal hisoblanadi.

Ko`rinib turibdiki, aloqa-aralashuvda ishlatiluvchi noverbal vositalar verbal fikrni kompensatsiya qilishi, nutqning ta`sirchanligini, emotsionalligini oshirish maqsadida uni kuzatib borishi yoki nutq jarayoni bilan parallel holda verbal ifodani mustahkamlashi mumkin.

Noverbal vositalar va verbal vositalar organik holda til sistemasini tashkil qiladi. Ularni alohida-alohida o`rganish, har birini mustaqil fikr ifodalash vositasi deb hisoblash to`g`ri emas. Tabiiy ravishdagi nutqiy fikr ifodalash noverbal vositaga nisbatan birlamchi vosita sanaladi, chunki lisoniy vosita orqali har qanday mustaqil va yordamchi so`zlarni ifodalash mumkin. Noverbal vosita esa, “odatda”, “uchun”, “agar”, “aytishlaricha” kabi so`zlarni ifoda eta olmaydi.

Nutqiy aloqa uchun barcha noverbal vositalar faqat verbal aktning funksional komponenti hisoblanadi.

- *Siz Gulchehraxon bilan gapashdingizmi?*

- *Yo`q, – Muyassar boshini chayqadi (O. Yoqubov).*

- *Endi nima qilasan? – dedi To`laboy aka. – Yilqini bizga yaqinroq surib ke.*

Oldimizda bo`ladi.

Azliddin aka bosh chayqadi:

- *Foydasi yo`q. bo`ri endi tinch qo`ymaydi (S. Siyoyev).*

Keltirilgan dialogik nutqlarda verbal va noverbal vositalar parallel holda qo`llanib, biri ikkinchisining mazmunini izohlab, konkretlashtirib kelmoqda. Birinchi dialogda noverbal vosita, ikkinchisida verbal ifoda pleonastik rol o`ynamoqda.

Psixologlar Ya. Valshiner va X. Mikkinlarning xulosasiga ko`ra adresat uchun vizual (noverbal vosita orqali M.S) reaksiya verbal reaksiyaga qaraganda o`rtacha 170 m.sek. tez amalga oshadi, lekin aloqa aralashuvda kommunikantlarning vaqt qisqa va ziq bo`lishiga qaramay, har ikki vositadan foydalanishlari aloqa jarayonining tabiiy holatiga aylanib qolgan. Kishilardagi aloqa-aralashuvda qatnashadigan ishoralar insondagi emotsional yuz o`zgarishlari singari qadimiy va tabiiylashgan bo`ladi.

Demak nutqiy holatlarda hamma uchun ma`lum bo`lgan goho boshqacha me`zon bilan tushuniladi. Leksik ma`nosidan anglashilgan obyektiv baho xususiylik kasb etib, yangicha bahoga aylanadi, ammo bahoni tushunish shu nutqiy holat uchungina mos bo`ladi. Har qanday obyektiv baho subyektiv bahoga aylanadi. Bu esa tilda imkoniyat tarzida mavjud baho mazmunining so`zlovchi

obyekti (dunyoqarashi, fe'l-atvori, yashash tarzi, hududi va xokazo), nutqiy vaziyat, so`zlovchi va tinglovchi o`rtasidagi shartnomaviy munosabat kabi qator omillar ta'sirida o`zgarishiga (tilda ijobiy, nutqda salbiy yoki aksincha) olib keladi.

II bob. Fonetik va leksik sathda baho munosabatini ifodalanishi

2.1. Shaxs bahosini ifodalovchi leksik birliklari

Badiiy asarda baho fonetik usulda ifodalanganda, personaj nutqining muhim belgilari muallif tomonidan izohlar beriladi. Muallif izohida ovoz toni (pichirladi, shivirladi, baqirdi va hokazo), talaffuz tempi (duduqlanib, shoshib, salmoqlanib, cho`zib) yoki sifatini (hansirab, to`lqinlanib, tagdor qilib va hokazo) ko`rsatuvchi nutqiy jarayo bilan bog`liq fe`l leksemalarning qo`llanishi baho ifodalovchi usullar o`zaro uzviy aloqadorlikda ekanligi, ularning biri ikkinchisini to`ldirib, izohlab borishidan dalolatdir.

Leksik sathda baho munosabatini ifodalashning barcha usullari ichida leksik usul eng sarmahsul hisoblanadi. Negaki tildagi juda ko`p leksemalarda baho semasi mavjud bo`ladi. So`z leksik ma`no ifodalash bilan birga, nutqiy vaziyatda subyektiv bahoni yoki so`zlovchi va tinglovchining munosabatini ham ifodalaydi. “So`z nafaqat grammatik, leksik ma`nonigina bildiradi, shu bilan birga, obyektga subyektning bahosini ham namoyon etadi”, - deydi V.V. Vinogradov.

Bahoning qay darajada kuchli yoki kuchsizligi baho ifodalashda ishtirok etayotgan konkret so`zning baho semasi hamda sintaktik maydondagi unga aloqador bo`lgan so`zlarning ma`no kuchiga qarab belgilanadi. Agar pragmatik jihatdan qaralsa so`zlovchi va tinglovchi o`rtasidagi o`zaro shartnomaviy munosabat orqali so`z tanlanadi va muayyan baho ifodalash uchun ishlatiladi. Ba`zi hollarda bahoni uslubiy jihatdan kuchaytirish uchun ijobiy baho ifodalovchi so`z salbiy baho ifodalash uchun ishlatilishi mumkin: *...butun mahalla-ko`y Razzoq So`fining baxtini olqishlab, chapak chalardi!* (Cho`lpon)

Keltirilgan parchadagi olqishlab leksemasini matndan ajratib, alohida olinsa, u ko`proq ijobiy baho ifodalaydi. Hikoya matni bilan tanish bo`lgan o`quvchi ko`z o`ngida esa mahalla-ko`yning olqishlashi salbiy baho ifodalaydi. Avvalo, jumladagi “Razzoq So`fining baxti” deyishida kinoyaviylik bor, bu esa bahoni to`g`ri anglashga yo`nalish beradi: so`fining baxtini (ya`ni, bu baxt

Sharofatxonning baxtsizligi demakdir) olqishlayotgan mahalla-ko`yning bir qiz taqdiriga befarqligi asosida muallifning bu holga salbiy bahosi anglashiladi.

Baho ifodalashning leksik usulida asos leksema hisoblanadi. Baho leksemasining leksema sememasida obyektiv jihatdan mavjudligi so`zlovchi (subyekt) ning bahoni so`z tanlash orqali ifodalashiga imkon beradi. Lekin leksema sememasidagi baho sememasining yuzaga chqishda qo`shimcha vositalarning ishtiroki ham (prosodik, ekstralingvistik va boshqalar) ahamiyatlidir. Zero, ayni shu vositalar leksemada mavjud bo`lgan umumiy bahoni so`zlovchigagina xos bo`lgan individual bahoga aylantiradi. Shuning uchun ham nutq jarayonida leksemalar ifodalagan baho umumiylikdan hususiylikka tomon siljiydi. Shunga bois, baho ma`nosining to`g`ri angashilishi uchun til-nutq hodisalarini (nutq vaziyati, subyektning harakter hususiyatlari, u mansub muhim muloqotning ruhiy atmosferasi va hokazo) o`zaro aloqadorlikda tahlil etish muhim hisoblanadi.

Baho ifodalovchi morfologik vositalar baho ifodalashning morfologik vositalari xilma-xil va rang-barangligi tahlil etiladi. Ularni har bir so`z turkumi doirasida alohida tadqiqot obykti qilib olsa ham bo`ladi. Ayniqsa, ot, sifat, fe`l va ravish so`z turkumlarida, modal so`zlar, undovllarda baho ifodalashga moyillik juda kuchli, shuning uchun ishda bahoga ishora qiluvchi ko`rsatkichlar doirasidagi morfologik vositalar asos qilib oindi va ulardagi so`z yasovchi qo`shimchalar orqali bahoning yuzaga kelish holatlarini tahlil qilish bilan cheklanildi.

Baho kategoriyasi belgilik xususiyatini hamda denotativ jihatdan predmet-belgi munosabatini ifodalashi e`tiborga olinsa, predmet va belgi hosil qiluvchi qator baho ifodalovchi affikslar ham aksiologik affiksatsiya deb baholanishi to`g`ri bo`ladi.

Bizningcha, baho ifodalovchi affiksal morfemalarga so`z yasovchilar ham, shakl hosil qiluvchilar ham kiradi, chunki baho munosabati yangi hosil qilingan belgi, xususiyat, holat predmet, harakat ifodalovchi leksemalarda namoyon bo`ladi. "So`z yasashda ikki qism – so`z yasash asosi va so`z yasovchi ishtirok etishi" ta`kidlanadi. Shunga ko`ra, so`z yasash asosiga so`z yasovchi qism qo`shilishi

natijasida baho munosabati ifodalanishi mumkin. Masalan, *qo`rqmoq* fe'l asosga - oq affiksini qo`shish bilan yasalgan *qo`rqoq* so`ziga baho aniq ifodalanadi.

Shu bilan birga ijobiylik va salbiylik ma'nolari mavjud so`z yasovchilar borki, bunday qo`shimchalar asosdan anglashilgan ma'noga ijobiy yoki salbiylik ma'nosini yuklaydi: *bad-*, *xush-* prefikslari. *Xush-* tojik tilidan kirgan, asosan, otlar oldida kelib, "yaxshi", "yoqimli" ma'nosidagi sifat hosil qiladigan affiksoid: *xushbichim*, *xushmuomala*. *bad-* passiv, tojik tilidan kirgan, otdan salbiy ma'noli – "yomon" ma'nosidagi sifatni yasaydi: *badfe'l*, *badbaxt*³⁴.

Sifatlardagi *-li*, *-siz*; *ba-*, *be-* antonimik juftliklar o`zakdan anglashilgan predmet, hodisaning mavjudligini yoki aksi asosida anglashilgan belgi ma'nosini ifoda etadi. Hosil bo`lgan belgi ifodalovchi so`z predmetga nisbatan ijobiylik yoki salbiylik baho munosabatini ifoda etadi: *odobli bola*, *odobsiz bola*. Bu kabi hollarda mavjudlik – mavjud emaslik tushunchasi predmetga nisbatan ijobiylik yoki salbiylik ma'nosini yuklaydi.

Masalan: *Odobli bola elga manzur*.

Odobni odobsizdan o`rgan.

Tilda baho tushunchasi shakl hosil qiluvchi affikslar orqali ham ifodalanishi mumkin. Ye. M. Volf baho semantikasi haqida gapirganda baho ifodalovchi affikslar alohida o`rganish obyekti bo`lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Shakl yasovchi qo`shimchalar (affikslar) individual baho munosabatini ifodalab keladi va bu kabi baho umumbahodan farqlanadi. Bunday qo`shimchalar o`zbek tili grammatikasiga oid ishlarda "modal forma" yoki "subyektiv baho formasi" nomi bilan berilib, so`z formasining alohida turi sifatida ta'riflab kelinmoqda.

Funksional shakl ifoda etuvchi qo`shimchalar individning bahosi sanalgani uchun denotatning umumiy bahosi bo`lmay denotatning subyektiv bahosidir. "Subyektiv baho, – deydi R. Qo`ng`urov, – so`zlovchining obyektiv borliqqa va nutqiga ijobiy yoki salbiy munosabatining belgilashidir".

³⁴ Қаранг: Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими – Т.. Ўқитувчи, 2007 – Б.21
ЎТИЛ, II том – Б 147.
ЎТИЛ, II том – Б 403.

Sintaktik sathga baho munosabatini ifodalashda sintaktik-semantik usul alohida o`rin tutadi va muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har qanday gapning mazmuniy mundarijasi diktal va modal ma`nolarning munosabatidan iborat bo`ladi. Bahoning sintaktik usulda ifodalanishda obyekt va subyekt masalasiga alohida e`tibor berish va shu asosda bahoning yuzaga kelishini semantik-sintaktik tahlil etish kerak bo`ladi.

Gap baho ifodalash uchun vosita bo`lar ekan, unda asosan baho obyekt va subyekt munosabati tarzida yuzaga chiqadi. Shunga asosan, sintaktik usul bilan baho ifodalanishida: undalma, kirish so`z, kirish gap, modallik munosabati, inversiya va boshqa sintaktik uzvlar orqali baho ifodalanishini kuzatishimiz mumkin.

Sohangiz nima, uka? – do`xtir g`alati qaradi. (U. Hamdam). Ushbu misolda doktorning subyektga munosabati uka murojaat shakli (undalma) orqali namoyon bo`lmoqda. Bu o`rinda uka murojaat shakli orqali adresant adresatga aql o`rgatish, undan ko`ra ko`p narsani bilishi (chunki u katta) kabi pragmatik ma`no anglashiladiki, natijada undalma orqali salbiy baho munosabati ifodalanmoqda. Ba`zi o`rinlarda sintaktik sathda baho ifodalanishining bir necha usullari birga qo`llanishi mumkin. Masalan: *Jamilam tur o`rningdan!* (Hamza). Keltirilgan misolda munosabatning yuzaga chiqishi uchun Jamilam undalmasi ham, gap bo`laklari tartibining o`zgarishi (inversiya) asos bo`lmoqda.

Sintaktik usulda baho munosabatining yuzaga chiqishi dissertatsiyada misollar orqali atroflicha yoritilgan.

Mantiqiy-semantik usul bilan baho ifodalanganda, baho ifodalovchi vosita pragmatik jihatdan gapning umumiy mazmunidan yashirin tarzda, so`zlovchi va tinglovchi o`rtasidagi o`zaro shartnomaviy munosabat asosida tushuniladi va asosiy hukmga qo`shimcha tarzda mantiqiy xulosa asosida ikkinchi hukm tarzida baho yuzaga keladi. Bunday miliy mentalitet, urf va odatlar, kommunikatlarning o`zaro munosabatlari va boshqa faktorlar asos qilib olinishi mumkin. Masalan:

Uch kundan keyin doktor ayamga javob berib, dadamga: “Izvoshda olib keting, uyda biror hafta yotsin”, – debdi.

Dadam bizni Buvaydagacha izvoshta olib ketdi, lekin qishloqning kiraverishida izvoshtan tushib, uyimizgacha bir chaqirimdan ortiqroq yo`lni piyoda bosib ketdik... (A. Qahhor)

Doktor aytgan topshiriqlarni bajarish me'yoriy holat deb qaralsa, uni amalga oshirishni ijobiy tomonga siljish deb hisoblashimiz mumkin. Ularning qishloqqa kiraverishida izvoshtan tushib, uyigacha piyoda ketishlari salbiylik bahosini yuzaga chiqarayotgandek tuyuladi. Voqea davomi bilan tanishish mobaynida bola tilidan bayon qilingan quydagi mulohazalar urf-odatimizga, bir-birimizga bo`lgan hurmatga tog`ri keladigan xatti-harakat ekanigining guvohi bo`lamiz. Izvoshtan tushib, piyoda ketishlik salbiy baho berish uchun emas, ijobiy baho berishga asos bo`layotganligi namoyon bo`ladi.

... chunki guzardan izvoshtan o`tish, kattalarni pisand qilmaslik bo`lar, xalqning nazarida esa pulimiz oshib-toshib ketganligini ko`rsatar, bundan tashqari, yana "bu odam gubernatordan kam emas, izvoshtan tushmaydi" degan gaplarga sabab bo`lar edi. (A. Qahhor).

Gapning pragmatik tuzilishda yashirin tarzda ifodalanadigan, so`zlovchi va tinglovchining o`zaro shartnomaviy munosabatidan tushuniladigan baho mantiqiy-semantik usulda baho ifodalanishidir. Unda baho muayyan moddiy ishora vositasiga ega bo`lmay, gapning umumiy mazmunida tushuniladi. Gapda shakliy tuzilishi uzvlari orqali ifodalangan hukmga qo`shimcha tarzda pragmatik jihatdan yashirin holatda ikkinchi hukm anglashiladi. Bunday gaplar shaklan (sintaktik) sodda bo`lsa ham, mazmunan murakkab bo`ladi. Bu kabi holatlarda baho o`zaro to`g`ri proporsional yoki noto`g`ri proporsional bo`lishi mumkin.

O`zbek tilida dunyodagi barcha tillar kabi, fikr faqat lingvistik yo`l bilangina emas balki lingvistik bo`lmagan (ekstralingvistik yoki paralingvistik) vositalar, imo-ishoralar yordamida ham ifodalanadi³⁵.

M. M. Saidxonovning "Noverbal vositalar va o`zbek tilida ularning ifodalanishi" mavzusidagi nomzodlik ishida o`zbek tilshunosligida noverbal vositalarning ifodalanish usullari, ularning muomala jarayonidagi o`rni ochib

³⁵ Қаранг: Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида – Андижон, 1980. Б-4.

berilgan. Paralingvistik vositalarning shaxslar o'rtasidagi baho munosabatini yuzaga chiqarishi uchun ahamiyatli bo'lgan jihati ham mavjud. Shunga ko'ra paralingvistik vositalarning baho ifodalashdagi ahamiyatini yoritish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Aloqa-aralashuvning nolisoniy vositalarga bosh, qo'l, yuz, ko'z, lab va boshqa kishi organlari harakati natijasida ma'lum axborotni uzatish kiradi. Yoki kommunikantlarning ma'lum xatti-harakatlari ijobiy yoki salbiy baho bildirib keladi. Masalan:

Sevimli adibimiz Cho'lpon "Kecha va kunduz" romani (50-bet) da Xadichaxon, Poshshaxon va Fazilatning suhbat jarayonida Xadicha va Poshshaxonlarning ko'z harakatlari orqali kichik kundoshlari Sultonxonga munosabatini shunday mahorat bilan tasvirlanganki, ularning qalbidagi bor his-tuyg'ulari, orzu-istaklari ko'z harakatlari orqali namoyon bo'lgan:

Ikkala kundoshning ko'zlari birdaniga, o'g'il ko'rgani haqida xabar olgan otaning ko'zlariday ravshan bir olov bilan charaqladi. Bu misolda Cho'lpon o'xshatish orqali ikkala kundoshga ijobiy baho berish bahonasida ular ko'zlarining charaqlashlari Sultonxonga nisbatan salbiy baho ekanligini yashirin tarzda ko'rsatadi. Yoki ko'z yordamida bir-birlariga sevinchli xabar berishlari qutlashlari ikkala katta kundoshlarning o'zaro munosabatlarida ijobiy baho ma'nosini ifoda etsa, bu xatti-harakat orqali Sultonxonga salbiy baho namoyon bo'ladi.

Bosh barmoqni ochiq, qolganlarini yumgan holda ko'rsatish (zo'r, yaxshi), barmoqlarni ochiq tarzda suhbatdoshi tomonga ko'rsatish (ishlar besh ma'nosida), ko'rsatkich barmoqni chakkasiga qo'yib burash (aqli past) boshni qimirlatish (tasdiq), boshni tebratish (inkor), qo'lini paxsa, shop qilish; qo'l siltash, musht ko'rsatish yoki ikkala qo'lini paxsa mushtlab, bir-biriga urish (do'q-po'pisa) qo'lni ko'ksiga qo'yish (tasdiq, ehtirom) kabi harakatlar orqali ifodalangan ishoraviy ma'no kommunikatsiya jarayonida ijobiy yoki salbiy baho munosabatlari ifodalash mumkin. Masalan:

Shoirning yozib kelgan she'ri muharrir o'qib chiqdi va boshini bir necha marta tebratib

- yuzida mamnunlik balqidi (ijobiy)
- bir chetga qo'yib qo'ydi (salbiy – 1)
- g'ijimlab axlat idishga tashladi (2)
- yirtib uning betiga otib yubordi (3)

Ushbu misollarda muharrirning she'rga (shoirda) munosabati uning xatti-harakati orqali namoyon bo'lmoqda: salbiylik darajali tarzda (gradual asnoda) ifodalanmoqda.

Bahoning belgi ekanini e'tirof etgan holda, bahoga moyillik ko'proq sifat leksemalarda mavjud degan qarashlarga qarama-qarshi ravishda otlarda ham baho munosabati ifodalanishi mumkin.

Ma'lumki, otlar obyektiv borliqdagi narsa, predmet, voqea-hodisalarning atamasini anglatib, ular subyektning predmetga munosabatiga ko'ra baholanadi. Narsa va hodisalar ichida shaxs nomlari alohida ajralib turadi. Baho ifodalashda shaxs bildiruvchi otlar boshqa turdagi otlarga nisbatan ko'proq xoslangan.

Shaxsni xususiyatini e'tiborga olmaganda uning kasbi, yoshi, lavozimi, jinsi, saviyasi, jismoniy va ruhiy kamchiligi, qarindosh-urug'chiligi va boshqa konnotativ holatlar asosida insonni baho asosida ifodalovchi leksemalar mavjud bo'lib, nutqiy jarayonda konsituatsiyadan kelib chiqqan holda ijobiy yoki salbiy ma'nolarni bildirishi mumkin. Tadqiqotda qiz bola, erkak (jins); cho'loq, ko'r (jismoniy kamchilik); domla, qorovul (kasb); kofir, musulmon (diniy e'tiqod); ministr, boshliq (lavozim); go'dak, chol (yosh); amma, xola (qarindosh-urug') va boshqa shaxs bildiruvchi leksemalarning ishlatilishida bahoning ifodalanishi misollar orqali berilgan.

a) shaxs atamasi o'z ma'nosida berilmay, paradigma qatoridagi boshqa leksemani atash asosida yuzaga chiqadi. O'g'il bolaga nisbatan ayol jinsini bildiruvchi shaxs noomi ishlatilganda, katta yoshdagi odamga nisbatan kichiklikni anglatuvchi yoki aksincha ma'no ifoda etilganda baho ma'nosi ifodalanadi.

Abdulla jilmaydi.

Xurrambek! Nega irjayasan? qo`shnimiz barbod bo`lganigami? He-e, go`dak (Sh. Xolmirzayev, T. Usmonov).

Ro`mol o`rab olgan Sanobarga bir yigit:

- *tushasizmi, xola, – deb orqasidan turtkilagan edi, Sanobar yig`it tomonga qarab:*

- *Yo`q, tushmayman, tog`a, – dedi yigitning yuziga qarab.*

b) kishining jismoniy yoki ruhiy kamchiliklarini ifodalovchi substantiv sifatlar shaxs ma`nosida qo`llanilganda baho ma`nosi kuzatiladi: *pakana, daroz, ko`r, kar, kal, ko`sa, bujur* va boshqalar. Masalan: Pakananing tepalikdan pildirab tushib kelayotganini ko`rganlar bo`chka yumalab kelyapti deb tasavvur qilar edi.

c) ma`lum kasb-korni jamiyatdagi mavqeyiga nisbatan baholashda leksemaning sotsial nuqtayi nazardan ma`no ifodalashi asos qilib olinadi. O`zbekistonda *kirakash, otarchi, pulfurush, dallol* atamalarida salbiy emotsional-ekspressiv baho mavjud bo`lib, bu kasb kishilarining jamiyatga, insonlarga zarari yo`q yoki ularning mehnatidan barcha foydalanadi. Yoinki traktorhilar xususidagi Hojiboy Tojiboyevning yumoristik chiqishidan ushbu kasbning jamiyatdagi mavqeyining o`zgarganligi leksemadagi bahoning o`zgarganligini bildiradi. Masalan: *Traktorhilar keldimi? Mehmonxonaga olib kiringlar. U yerda o`qituvchilar bor ekanmi? Chiqarib yuboringlar.*

d) tarixiy, taniqli shaxslar, badiiy asar qahramonlari nomlari ishlatilganda baho munosabati ifodalanadi. Masalan:

Ko`p bolaning Alisher ismi,

Nodira-yu Ulug`bek ancha (Shuhrat).

Bu kabi antroponimlar hududiy-milliy tomondan baho ifodalaydi va bunda etalon sifatida barcha uchun tanish bo`lgan shaxs ismi olinadi.

Shu o`rinda yana shuni ham ta`kidlash joizki, ijobiy baho ma`nosini bildiruvchi shaxs atamalari salbiy baho ifodalovchi so`zlar bilan birikkanda kontekstual jihatdan salbiy baho bildiradi.

Ustoz ijtimoiy hayotimizdagi turli kasb hamda uning yo`nalishlarini avloddan-avlodga yetkazib kelayotgan murabbiy ma'nosini bildiradi. *Ustoz* leksemasini alohida holda olib, denotativ ma'nosiga e'tibor berilsa, unda:

a) kasb, hunar, ilm va shu kabini o`rgatuvchi, o`qituvchi muallim.

b) yo`l-yo`riq ko`rsatuvchi, tarbiyalovchi, murabbiy, rahnamo, o`qituvchi, muallim ma'nolari ifodalanadi.

Shuningdek, *shogird* leksemasi tarkibida biror hunar yoki kasbni o`rganish, egallash uchun o`sha hunar yoki kasb egasiga shogird tushishlik ma'nosi mavjud: *Rivoyat qilishlaricha, bir yigit mashhur o`g`riga shogird tushish maqsadida uning uyiga boribdi.* (Sh. Mahmudov) Shogirdlik ijobiy xislat, lekin kimga? qay tarzda? shogird tushishlikka qarab mavjud bo`lgan ijobiylik aks ma'nosiga ega bo`lib qolishi mumkin. Sifatlar belgi-xususiyat bildirar ekan, bu turkumni tashkil etuvchi leksemalarda baho munosabati yaqqol namoyon bo`ladi:

- *Voy sodda mug`ombir-ey qilg`iliqni qilib qo`yib, yana nima qilibman, deydi-ya! Voy kasofat ekansan-ku, sen bola* (M. Parpiyev).

Keltirilgan misolda *mug`ombir, kasofad* so`zlari salbiy baho ifodalovchi leksemalar bo`lib, *mug`ombir* – aldoqchilik bilan ish ko`ruvchi (O`TIL. I tom B-487), *kasofat* – yomon oqibatlarga olib boradigan, baxtsizlik (ziyon) keltiradigan (O`TIL. I tom B-371) ma'nolarini bildiradi.

Yaxshi va yomon bahoning ifodalanishi asosan sifatlar orqai namoyon bo`ladi. Chunki sifatlardagi baho munosabati obyektga nisbatan belgi nuqtayi nazaridan olib qaraladi va shuning uchun ham sifatlar baho tashuvchi turkum sifatida alohida o`rinda turadi.

O`zbek tilida baho ma'nosini bildirib keladigan belgi ifodalovchi leksemalarning signifikati adresat nuqtayi nazaridan baholanadi va bu baho subyektiv baho tarzida namoyon bo`ladi va eng e'tiborlisi, bu baho nisbiy xarakterda bo`lib u qiyos natijasida yuzaga chiqadi. Qiyosda ustunlik ifodalanmagan leksema nisbatan "yomon" bahoga loyiq topiladi. Masalan:

"Moskvich" yaxshi ("Zaporojets" ga nisbatan)

"Jiguli" yaxshi ("Moskvich" ga nisbatan)

“Tiko” yaxshi (“Jiguliga” ga nisbatan)

“Matiz” yaxshi (“Tiko” ga nisbatan)

“Neksiya” yaxshi (“Matiz” ga nisbatan)

“Lasetti” yaxshi (“Neksiya” ga nisbatan)

Shunga ko`ra sifat turkumi orqali ifodalanadigan baho muloqot davomida o`zaro kelishuvi va nuqtayi nazari bo`yicha beriladigan baho sanaladi. Bu holat shaxs xususiyatlarini ifodalovchi leksemalarda ham namoyon bo`ladi.

Kishi xususiyatining bahosi mazmuniy struktur o`ziga xos ekani bilan xarakterlidir. U tilning pragmatik yo`nalishida namoyon bo`ladi. Inson ijtimoiy turmush tarzida shaxs sifatida markaziy o`rinni egallaganligi va til kishilar o`rtasidagi munosabatlarni aks ettirgani sababli, insonni turli jihatdan xarakterlash, uni boshqalardan farqlash uchun bir qancha xususiyatlar asos qilib olinadi³⁶.

Masalan: *Kafedra eshigi yonida turgan qop-qora qalin sochlari turmaklangan, shahlo ko`z, egnidagi jigarrang koftasi sarvqomatiga yarashgan, o`n sakkiz yoshlar chamasidagi qiz Majidovga odob bilan salom berdi.* (N. Yoqubov)

Ushbu misolda qizga berilayotgan ijobiy baho uning sochi, ko`zi, qomatini ta`riflash orqali ochib berilayotgan bo`lsa va baho shaxs xususiyatini ifodalasa, *ajoyib sayohat, qiziqarli suhbat* birikmalarida baho gap tarkibida ma`lum oktantlariga aloqador bo`ladi. Ajoyib sayohat (kim uchun?), qiziqarli suhbat (kim uchun?). Bu kabi birikmalardagi baho “oktant baho” bo`lib, baho voqeaga emas, balki voqeadagi oktantlardan birigagina taalluqli bo`ladi. Ajoyib sayohatni tashkil etgan, qiziqarli suhbatni uyushtirgan obyektga baho berilmoqda.

Baho ifodalovchi so`zlarning ba`zilari o`zaro qutbiy semaga ega bo`lmasligi va o`zaro antonimik juftlikni tashkil qilmasligi mumkin.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki, ijobiy baho ifodalovchi so`zlar salbiy semasi mavjud bo`lgan so`zlarga nisbatan ko`pchilikni tashkil qiladi. “Chiroyli” so`zini ifodalash mumkin bo`lgan lug`aviy birlik 50 dan ortiq bo`lishiga qaramay, “xunuk” so`zi sinonimiyasi 20 dan ortmasligi ma`lum. Yoki yaxshining yomonga

³⁶ Здравов А. К вопросу связанности текста. Труды по знакам системам . Вып VI. – Тарту, 1973.

nisbatan ishlatilishi 43 marta bo`lsa, yomonning yaxshiga nisbatan qo`llanishi 20 ta ekani aytiladi. Toza va kir o`rtasidagi ko`rinish 21:15 ekani T. M. Nikolayeva tomonidan ta`kidlanadi³⁷.

Sifat turkumidagi leksemalar ichida shaxs xususiyati bahosini ifodalovchi leksik-semantik guruh mavjud bo`lib, bu kabi birliklarda uchta majburiy sema mavjud bo`ladi: 1) shaxs; 2) xususiyat; 3) ijobiy yoki salbiy baho. Masalan, qizg`anchiq leksemasida xususiyat ifodalovchi birlikning obykti shaxsni bildirib keladi: qizg`anchiq bola (odam).

Sifatlardagi baho (belgi) ning nisbiy ekanligi sifatlarning graduonomiyasida ham o`z ifodasini topgan.

Yaxshi → yaxshiroq → juda yaxshi.

2.2. Fe'l leksemalarda baho munosabati

Fe'llarning semantik-aksiologik tahlili shuni ko`rsatadiki, o`zbek tilidagi quyidagi fe'llarning denotativ ma`nosi shaxsning ijtimoiy harakati munosabati nuqtayi nazaridan tahlil etilganda salbiy baho mavjud bo`ladi: *buzmoq, urmoq, savalamoq, tepmoq, tepkilamoq, bo`g`izlamoq, so`kmoq* va boshqalar. Ushbu fe'llar subyektning obyektiv borliqdagi harakatida anormal holat harakatini bildiradi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan fe'llarning salbiy baho ma`nosiga qarama-qarshi harakatning ifodasi ijobiy bahoni bildiradi: *qurmoq, erkalamoq, maqtamoq, suymoq, xursand qilmoq, silamoq* va boshqalar.

“Fe'l eng murakkab va keng sig`imli grammatik kategoriya bo`lib”, gap semantik strukturasi markaziy o`rinni egallaydi. Fe'llar harakatni yuzaga chiqaruvchi subyekt bilan aloqada bo`ladi va fe'llar orqali ifodalangan baho shaxsga nisbatan beriladi. Bu o`rinda fe'l orqali ifodalangan harakatni bajaruvchi subyekt nomi ham fe'lga birikuvchi so`z sifatida tahlil etilishini, fe'lga birikuvchi so`zlar bildiradigan hodisalar oktantlar ekanini (L. Tenyer) e`tiborga olsak, gap tarkibidagi leksemalarda umumlashtiruvchi sema (ijobiy yoki salbiy) bo`lishi mumkin.

³⁷ Николаева М.Т. Семантика оксентного выделения. – М., 1982. – С. 47.

Asadbek Elchinni girbonidan qo`lini oldi-yu, o`sha zahoti jag`iga musht tushirdi. O`zini o`nglashga ulgurmay, Kesak polvonning tepkisini yedi. (T. Malik)

Ushbu matn tarkibidagi *girbonidan, qo`lini olmoq, jag`, musht tushirmoq, o`nglanish, ulgurmaslik, tepki, yemoq* kabi leksemalarning barchasida salbiy baho semasi mavjud ekani ushbu leksemalarning matni shakllantiruvchi ichki aksiologik vosita ekanidan darak beradi.

Tadqiqotda bu guruhlariga kiruvchi bir qancha fe`l leksemalar semasi tarkibidagi baho semasi tahlil etilgan.

Valdiramoq, to`ng`illamoq, ming`irlamoq, g`uldiramoq, vaysamoq, sasimoq, vakillamoq, javramoq, jag`illamoq, bo`kirmoq, o`kirmoq, shang`illamoq, aljiramoq, baqirmoq, sayramoq kabi nutq fe`li leksemalari semasining semik tuzilishida anormal nutqiy holatni ifodalovchi salbiy baho semasi mavjud bo`lib, o`sha semasi yuqoridagi leksemalar uchun birlashtiruvchi sema bo`lib xizmat qiladi.

Shoim Bo`tayevning “Bir kunlik mehmon” qissasidan olingan quyidagi misollar orqali shaxslarning nutqiy faoliyatiga berilayotgan baho oydinlashtirilmoqda:

Shosha-pisha yaqindagina uylantirgan o`g`li bilan kelini o`tirgan xonaga kiriboq:

- Turinglar-turinglar, miymon kelipti. Tez bo`linglar, joy qilinglar, ahvolimizga kulib ketmasin, – deb valdiray boshladi.
- Kelin istar-istamas uydan chiqarkan:
- Kim ekan? – deb to`ng`illadi.
- Biz tomonlarga hali gaz kelmagan, – Xolmo`min uzr so`rayotganday ming`illadi.

Ushbu turkum doirasiga kiruvchi leksemalar belgi anglatish xususiyatlariga egaligiga ko`ra sifatga yaqin turadi.

Kishilar tomonidan bajariluvchi ish-harakat qay tarzda, qay holatda va qaysi maqsadlarda amalga oshirilayotganligi ravish leksemalari orqali ifodalanadi. Shu

bilan birga bu leksik birlikda ish-harakat bajaruvchisiga baho berish ishorasi ham sezilib turadi.

Ravish leksemalarda shaxs bahosi harakatning qay holatda bajarilganligi (asta, sekin, arang, zimdan, botirlarcha, do`stona, ko`r-ko`rona, majburan, nari-beri), harakatning bajarish payti (dastlab (boshladi), erta, kech), maqsadi (ataylab, jo`rttaga, qasddan), sababi (noiloj, chorasiz) va boshqa harakat belgisi ma`nosini ifodalovchi leksemalar orqali berilib, subyekt bahosini bildirib keladi.

Tadqiqotda baho munosabatini ifodalovchi boshqa vositalar ham sanab o`tilgan bo`lib, ishning hajmidan va tadqiqot oldiga qo`yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda ularga keng to`xtab o`tish lozim ko`rmadik.

2.3. Respublikamizda maktab ta'limini rivojlantirish borasida investitsiyalarni jalb qilish

Respublikamiz hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish borasida ko`plab islohatlar o`tkazilmoqda. Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish borasida mamlakatimiz hukumati tomonidan katta miqdorda investitsiya jalb qilinmoqda. O`z aql-zakovati, ilmiy-texnikaviy salohiyatimizni rivojlantirish mamlakatimizni barqaror taraqqiy ettirish omilidir. Shu sababli keyingi yillarda ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashga e`tibor kuchaytirildi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1-chaqiriq IX sessiyasida (1997-yil 29-avgust) "Ta'lim to`g`risida Qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Ushbu sessiyada O`zbekistonning birinchi prezidenti I. A. Karimov "Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusida nutq so`zlab, o`tgan davr mobaynida amalga oshirilgan tadbirimiz butun hayot talab qilingan natijalarni bermayotganligi unga sabab quyidagilardan iboratligini ta`kidlaydi:

Birinchiidan, biz eski, sho`rolar zamonidan qolgan ta'lim-tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan qutilmaganligimizni.

Ikkinchiidan, barcha amaldagi o`zgarishlar va tadbirlar, asosan yuzaki bo`lib, ta'lim-tarbiya va o`quv jarayonlarining tarkibini bosqichlarini bir-biri uzviy

bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarini yechib berilmaganligi.

Uchunchidan, bizning amaldagi ta'lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy etgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko'p joylarda yaqqol ko'rilganligidir.

Eski ta'lim tizimining yomon odatidan biri boshlang'ich ta'limiga ikkinchi darajali ish deb qaralganligi, olimlar orasida darslik yozishga pastroq bir ilmiy ish sifatida qarash illati borligi.

Ta'lim tizimini isloh qilishga yana bir sabab, respublikamizda yiliga taxminan 450 ming nafar o'g'il-qizlarimiz 9-sinfni bitirib, 55 foizi 10-sinfda o'qishni davom ettiradi. 100 ming nafari kasb-hunar yoki maxsus o'quv yurtiga o'qishga kiradi, 11-sinfni bitirganlarning 10 foizi oliy o'quv yurtiga kirib o'qishni davom ettiradi. Qolganlari biror bir aniq ixtisos, kasb-hunar o'rgana olmay ko'chada qolmoqda.

Ushbu achinarli holatni tahlil qilgan holda ta'lim tizimini isloh qilish zarurligini bilamiz.

Oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish tizimining qanday zaifliklari borligiga to'xtaladigan bo'lsak: mavjud – oliy o'quv yurtlarida tayyorlanayotgan o'quvchilarni oldindan aniqlangan fan va texnika, iqtisodiyot, ishlab chiqarish va boshqa sohalarning ehtiyojiga, bir so'z bilan aytganda, hayot talablariga qarab tashkil etilmaganligidandir.

O'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlarimizning tayyorgarligi ko'p jihatdan zamon talablariga, bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga javob bermasligi ayon bo'ldi. Ta'lim sohasida xalqaro me'yorlar va andozalar asosida davlat amaldorlarini ishlab chiqarmaganligimiz, o'quv yurtlarini zamonaviy uskuna va jihozlar bilan ta'minlab, kerakli moddiy baza yaratmaganligimiz, avvalambor, o'quv dasturlari eskicha qolib ketayotganligi, tayyorlanayotgan mutaxassislar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Shuning uchun ham oliy o'quv yurtlari islohotini amalga oshirishda ba'zi bir nuqsonlariga e'tibor berishimiz lozim.

Birinchiidan, oliy o`quv yurtini bitirayotganlar qanday talablarga javob berishni aniqlab olishimiz kerak.

Ikkinchiidan, chanqoq bilim olishni o`zining oliy maqsadi qilib qo`ygan istedodli bolalarni topish, tanlash qabul qilishda obyektiv adolatli tizim va tartib o`rnatish, yetarli zamonaviy bilim olish uchun imkoniyatlar yaratish.

Uchinchiidan, oliy o`quv yurtlarida qanday bir necha xil mutaxassislik bo`yicha ta`lim berilishi lozimligini belgilab olishimiz kerak.

Yuqoridagi kamchiliklar mavjudligi sababli oliy o`quv yurtlarini ham isloh qilish kun tartibiga qo`yildi.

Ta`lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni bosqichma-bosqich o`tkazish prinsipi quyidagicha:

Birinchi bosqich – o`tish davri bo`lib, u 1997-2001-yillarda, ya`ni 4 yil davomida bo`lib, kadrlar tayyorlash tizimi salohiyati saqlanib qolinishi, uning rivojlanishi uchun huquqiy-me`yoriy, ilmiy metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoit yaratilishi, shunga muvofiq quyidagi vazifalar bajarilishi ko`zda tutildi.

Yangi pedagogik kadrlarni tayyorlash: o`quv standartlarini yaratish va yangi o`quv dasturlari ustida ishlash; umumta`lim maktablarini tuzilishi jihatdan qayta qurish; uch yillik ta`lim – o`rta maxsus va kasb hunar bilim yurtlari (kasb kolleji va akademik litsey) tizimiga zamin tayyorlash; uzluksiz ta`lim – tarbiya tizimiga asos solish tadbirlarini amalga oshirish; ijtimoiy himoyani kafolatlash kabi masalalarni yechim bosqichi.

Ikkinchi bosqich – 2001-2005-yillarni o`z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqyosda to`liq amalga oshirishda erishish darkor. Tabiiyki, tizim faoliyatini samaradorligini, mehnat bozorini inobatga olib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib dastur g`oyalari va qoidalariga kerakli o`zgartirishlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich – 2005 va keyingi yillarga mo`ljallangan bo`lib, unda to`plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o`zgaruvchi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni bilib olgan holda kadrlar tayyorlash milliy tizimni takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda juda ko'p ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa yangi shakldagi o'quv yurtlari – kollejlari, litseylar, biznes maktablari tashkil etish masalalariga katta e'tibor berilmoqda. 1998-2000-yillarda 160 ming o'quvchiga mo'ljallangan 17 ta akademik litsey va 260 ta kasb-hunar kollejlari qurilib foydalanishga topshirildi. Shu maqsadlar uchun 135 milliard so'm sarflandi.

Haqiqatan ham fan va ta'lim sohasida respublikamizda juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fan va ta'lim borasidagi katta xizmatlari, jumladan milliy dastur shakllanishida tashkilotchilik va tashabbuskorlik ko'rsatgani uchun Xalqaro Fanlar Akademiyasi birinchi prezidentimiz I. A. Karimovni ana shu nufuzli akademiyaning faxriy a'ziligiga sayladi. Akademiya prezidenti a'ziligiga sayladi. Akademiya prezidenti V. Shukshunov diplomni topshirish paytida shunday deb ta'kidlagan edi: “O'zbekistonda ishlab chiqilgan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmun mohiyat jihatidan tengi yo'q hujjat va zamon talabiga to'la javob beradi”.

Xulosa qilib aytganimizda, mustaqillik yillarida juda ko'p sohalarda ulkan-ulkan o'zgarishlar bo'ldi. Butun mamlakatimiz yirik qurilish maydonini eslatadi. Uning hududlari shaharlari, o'quv yurtlari – kollejlari litseylar, sport inshootlari va boshqalar qad ko'tarmoqda. I. A. Karimov ta'kidlaganidek, – “O'zbekiston kelajagi buyuk davlatdir”. Uning rivojlanishiga, odil demokratik davlatni barpo etishda fan va ta'limning hissasi ham katta.

III bob. Frazeologik birliklarda emotsionallikning ifodalanishi

1. Frazeologik birliklar va emotsional leksika.

Odatda, soʻzlarning birikuvi tufayli soʻz birikmasi hosil boʻladi. Bu soʻz birikmalarining baʼzilari erkin boʻlsa, baʼzilari turgʻun boʻladi. Oyoq uchida birikmasi matndan anglashilgan ish-harakatning imi-jimida, yashirincha, maxfiy bajarilganligini bildiradi. Birikma tarkibidagi har bir soʻz oʻz mustaqil maʼnosini saqlamagan, shunga koʻra bu sostavdagi soʻzlari barqaror, boʻlinmas bir semantik birlikni hosil qilgan turgʻun birikmadir.

Frazeologiya barqaror birikma sifatida semantik xususiyati va grammatik qurilishi jihatidan oʻzbek tilida ancha durust ishlangan sohadir³⁸.

Frazeologizmlarning semantik-grammatik xususiyatlarini oʻrganish qanchalik muhim boʻlsa, ularning qanday maqsad zaminida barqaror nutqiy shakl sifatida qoʻllanishi va qanday oʻrganish ham katta ilmiy-ommaviy ahamiyatga egadir.

Tilda ifoda va mazmun tomonlari dialektik tarzda bogʻlanadi. Bunda ifoda rejasi oʻzining ramziy belgiligi asosida nisbiy mustaqillikka egadir. SHuni alohida taʼkidlash kerakki, leksemalarga yondosh boʻlgan til birliklari - turgʻun frazeologik birliklarda ifoda va mazmun rejalarining bir-biriga toʻliq moe kelmasligi mavjud. Quyidagi keltirilgan matnlardagi tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi jumlasining ichki tomoniga diqqat qi lay lik:

1. Qish chillasi ... tarvuz! Necha haftadan beri xotini uyda orziqib kutadi. Jamila tungunadi: Hozir tarvuz payti emas. SHuning uchun undan soʻramaydi. Tarvuzni koʻrgach, Jamila ne ahvolga tu shar ekan ... Hayol daryosiga gʻarq boʻlgan kuyov bir dan toyib ketdi, tarvuzi qultigʻidan tushdi - «tare» eti b erildi.

2. Ne-ne umidlar bilan kelgan arzgoʻyning tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi, «noumid shayton» qabilida yapa bir harakat qilishga urindi.

Birinchi matndagi tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi nutqiy hosila: uzbek tilidagi [tarvuz], [qoʻltiq], [tush] leksemalarinipg maʼlum shakllar bilan birikishi va shu

³⁸ Рахматуллаев Ш. Узбек тили фразеологияси. Тошкент, 1953, 56-6.

asosidagi [esa - vosita l i to'ldiruvchi yoki hol-keeim] modelining nutqda yuzagi chiqshnidir. Nutqiy hosila qismlari o'z mazmun va ifoda rejasining mustaqilligini, alohidaligini saqlagan. Bu holatda ifoda rejasi bilan mazmun rejasining moe ligi mavjud. Ikkinchi matndagi tarvuzi qo'ltig'idan tushdi hodisasida esa ifoda - mazmun rejalari orasida simmetriya yo'q: butun reja semantik jihatdan qayta qurilib, «bo'shshmoq» ma'nosi uchun xos ligi qolgai.

Tilning ifoda rejasida bir-biriga zid holatlarni miqdoriy o'lchamlardagi ziddiyatlarni ko'rshl mumkin. Masalan, frazeologizmlar va sinonimiyada ifoda birliklari mazmun birliklaridan ko'p bo'lsa, polisemiya va omonimiyada buning aksini ko'ramiz. Bunda birliklar ikki va undan ortiq ma'no bilan. ish ko'radi. Ikki va undan ortiq ma'no bir shaklga to'g'ri kelishi hollarini kontekst yoki matn bartaraf etadi.

Ko'p ma'no lilik hodisasi turg'un birikmalarga, ya'ni frazeologii iboralarga ham xos. Masalan, «O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati»da bosh ko'tarmoq iborasining 6 xil ma'no ottenkasi ko'rsatiladi.

Quyidagi iboralar ham bir necha ma'noga ega: yo'lga solmok: 1) ketish tomoniga to'g'rilab qo'ymoq, yurgizmoq; 2) to'g'ri yo'lgaqaytarmoq; 3) manfaatdor bo'lgani holda rag'batlantir moq.; 4) faoliyatini yaxshilamoq.

Bel bog'lamoq: 1) shaylanmoq, o'tlanmoq; 2) astoydil kirishmoq; 3) ahd qilmoq.

Tilga kirmoq: 1) nutqqa ega bo'lmoq; 2) ma'lum fursat o'tgandan so'ng gapira boshlamoq; 3) o'q uza boshlamok³⁹.

Frazeologik iboralarning ko'p ma'noliligi ularning sinonimik holati bilan bog'liq. Chunki u yoki bu iboraning yangi ma'nosi turg'un iboralar doirasida yangidan-yangi semantik bog'lanishlarni aniqlashga, frazeologik ma'nolar miqdorini kengaytirishga olib keladi. Frazeologik iboralarning sinonimiya hodisasiga boyligi ulardan foydalanishda katta stilistik imkoniyatlar yaratadi. Bu imkoniyatlarni, qisqacha, quyudagicha izohlash mumkin:

³⁹ Қаранг: Ш.Рахматуллаев Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. Фан, Тошкент, 1964, 32-33 бетлар.

Frazeologik ibora alohida soʻz bilan sinotggmik munosabat hosil etadi. Masalan, tepa sochi tika boʻldi iborasi achchgasdanmoq, gʻazablanmoq soʻzlari bilan, koʻzi tor iborasi qizgʻanchiy, soʻzi bilan, nonini tuya qilmoq iborasi aldamoq soʻzi bilan siiogʻ shik. holatda boʻladi.

Bir sinonimik uyani tashkil qiloʻvchi iboralar oʻzaro obrazlilik darajasi jihatidan farqlanadi. Masalan, boshiga etmoq - boshini emoq frazeologizmlari ayni bir maʼnoni anglatsa-da, ammo obrazlilik darajasiga koʻra farq qiladi. Ikkinchi iborada

«yoʻq qilmoq», «halok qilmoq» maʼnosi kuchli va qatʼiyroq. Boshi

■ IMF "

qotdi, boshi shishdi, miyasi gʻovlab ketdi iboralarining soʻnggisi maʼno darajasining kuch li ligi, obraz liligi va ifodaliligi jihatidan ajralib tu radi. Xuddi shuningdek, mum tishlamoq, ogʻzigatolqon solmoq, ogʻziga qatiq ivitmoq sinonimik uyada ikkinchi va uchinchi iboralar birinchisiga gshsbatan obraz liroqdir. Olib borilgan maxsus «kuzatishlar frazeologik sinonimlarning koʻpincha obrazlilik darajasida farq qilinishini koʻrsatadi⁴⁰.

Frazeologik sinonimlar nutq koʻrinishlariga xoslangan boʻladi. Bir sinonimik uyadagi iboralarning baʼzisi umumnutqqa xos boʻlsa, baʼzisi boshqa biron nutq qoʻrinishiga xoslangan boʻladi. Masalan. erga tegmoq, turmushga chikmoq, erga chiqmoq iboralarning birinchisi rasmiy nutqqa, ikkinchisi badiiy nutqqa, uchinchisi esa soʻzlashuv nutqiga mansub. Quyidagi iboralarning birinchisi badiiy nutqqa, ikkinchisi umumnutqqa oiddir: bir yoqadan bosh chiqarmoq, bir jon bir tan boʻlmoq.

Frazeologik iboralar nutq koʻrinishlariga qarab turli xil vazifada qoʻllanadi. Ilmiy va rasmiy nutkda, koʻpincha, nominativ funksiyani bajaradi. Bunga koʻl qoʻymoq, qoʻl koʻtarmoq, oʻrtaga tashlamoq, ovoz bermok, ovozga koʻymoq, haddan oshmoq, fikri bir erdan chiqmoq iboralari misol boʻladi. Badiiy adabiyot va publitsistik. asarlarda dastavval turli koʻrinishlarga mansub frazeologizmlarning ekspressiv-stilistik jihati va uning obrazlilik, taʼsirchanligi nazarda tutiladi.

⁴⁰ Қаранг: Ш.Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг қисқача фразеологиясининг баъзи масалалари. Тошкент, 1996.

Badiiy adabiyot va publitsistikada iboralarni ishlatish, qo‘llash yo‘llari juda xilma-xil. YOzu^chi va publitsistlar umumtildagi mavjud tayyor iboralardan unumli foydalanibgina qolmay, o‘zlari ham shular zamirida yangi iboralar yoritadilar. Bunda ular umumtil iborasi zamiridagi ma’noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish, uning semantikstilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha

----- s t -
¹ Qarang: SH.Rahmatullaev O‘zbek tilining qisqacha frazeologiyasining ba’zi masalalari. Toshkent, 1996.

majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullardan foydalanadilar.

YOzuvchi Abdulla Qahhor «Qo‘shchittor chiroqlari» romanida rus tilidan o‘zlashgan o‘zgazi bilan o‘lchamoq iborasi asosida yangi ibora yaratadi. Bunda u «...ibora zamiridagi obrazpi Uktamjonning fikriga muvofiklashtirish uchun uning talqiniga «o‘lchagani gaz i yaramay qolmoq, zskilik qilmoq» tarzida yangicha yo‘nalish, yangicha tue beradi. Natijada tushinishga ojizlik qilmoq degan ma’noni ifodalaydigan individual frazeologik neologizm vujudga keladi: o‘lchagani gazi zskilik qilmoq, bu yangi ibora O‘rmonjonning fikrii obrazli qilib, yorqin ifodalash imkonini beradi.»¹

Umumtil frazeologik iboralaridan. Oybek, Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, G‘afur G‘ulom va boshqa ko‘pgina talantli yozuvchilar o‘z asarlarida mohirlik va ijodkorlik bilan foydalanganlar. Masalan, Abdulla Qahhor «O‘tmishdan ertaklar» qissasida To‘raqul vofurushning juda ayyorligini, mug‘ombir va quvligini ko‘rsatish uchun ilonning yog‘ini yalagan xalq iborasiga muqobil tarzda yangi ibora ijod qiladi:

- Pulni oldingiz, usta, baland emang. Bu odam sof ajdaho. Ulikning yog‘ini, tirikning tirnog‘ini eydi bu!

Quyidagi misolda suvi qochgan iborasi yangi ma’no kasb etgan -salbiy baho ottenkasiga zga bo‘lgan: 110 qadokdan (Amerika o‘lchov vaznida) oshishini gunoh sanagan daroz, taxtakachi, suvi qochgan shilqim ayollarni ko‘rganim sari bir

kimsa, tabiatning tanti san'ati yaratgan bo'yi-bast, bug'doy rangli bejirim chiroy... meni bir zum ham tinch quymas...

Tilning har qanday vositasi maxsus biror stilistik maqsadda ishlatilsa, qandaydir ekspressivlik-emotsionallikka eripgash maksadida tilning u yoki bu vositasini ataylab ko'chma ma'noda ishlatiladi. (Masalan, ko'plikni ifodalovchi grammatik formalarning hurmat, kesatish, intensivlik kabi ma'nolar da; shaxe ko'rsatkichlarining shu xil ottenkalarni ifodalashda qo'llanishi kabilar).

Frazeologik birikmalar ham yaxlitligicha yoki komponentlaridan birining ko'chma ma'nosi asosiga qurilgan bo'ladi. Binobarin, ular nutqda ma'lum stilistik maqsadlar, ayniqsa, ekspressiv-emotsional ottenkalar ifodalash uchun xizmat qiladi,

Til da ekspressivlik ifodalovchi vositalar anchagina uchraydi, lekin frazeologizmlar bunday xususiyatining uz i ga xosligi bilan ajralib turadi. Frazeologizmlar nominativ ma'no va qo'shimcha ottenkalarining ajralmas bir ligi dan maxsus nutqiy figuralardir. Frazeologizmlarning ko'pchiligi nutkda ma'lum stilistik maqsadlar ayniqsa, ekspressivlik uchun xizmat qiladi. U l ar da bunday xu su snyat kuchli. va rang-barangdir. Maslan, kulini ko'kka sovurmoq yoki uning sinonimi er bilan yakson qilmoq kabi iboralar faqat yo'q qilmoq ma'nosinigina bildirmaydi, igu bilan birga butunlay tag-tugi bilan yo'q qilmoq degan ma'noni kuchaytiradi, voqeaning yuzaga chiqish holati yuksak darajada sodir bo'lganligi kabi ma'nolar ifodalanadi: ko'zlari kosasidan chiqib ketdi (g'azabi qo'zidi), mukkasidan ketgan (ortiqcha berilgan), yog' tushea (tomsa) yalaguday (top-toza) kabilarda ham shu holni ko'ramiz. Frazeologizmlar stukturasi va semantik xususiyatlari jihatidan xilma-xildir shunga ko'ra ular orqali beriladigan ekspressiv ma'nolar xam turli darajada bo'ladi. Maslan, ona suti og'ziga kelmoq, oyog'ini osmondan keltirmoq, ok bilan qorani tanimoq, obro'yi tushmoq, oldini olmoq, es(i)ga kelmoq iboralari ekspressivlik ifodalashi jihatidan bir xil darajada emas. Ularning ayrimlarida butunlay ma'no bo'rtib tursa, ba'zilarida passivroq, boshqa birlarida esa deyarli yo'q darajadadir.

Ekspressivlikning darajalanipshni birgina frazemaning turli o'zgarishlar bilan qo'llanishida ham ko'rish mumkin. Qo'llanishdagi o'zgarishlar frazema strukturasi leksik, fonetik, grammatik vositalar hisobiga bo'ladi va ekspressivlik darajasi shu vositalarning qatnashuvi tufayli o'zgaradi. Masalan, sochi tikka bo'ldi ekspressivlik nisbatan eng quyi darajada deb hisoblasak, ekspressivlik uning (darajaning) ortib borishini quyidagi misollar tartibida ko'rish mumkin: sochlari tikka bo'ldi (-lar qo'shimchasining intensivlik ifodalash hisobiga) grammatik o'zgarishlar; sochi tippa-tik bo'ldi (undoshni ikkilantirib, urg'uni oldingi bo'g'inga ko'chirish shu yo'l bilan intensivlik ifodalashi hisobiga) - grammatik o'zgarish sochlari tippa-tik bo'lib ketdi.

Ko'rinadiki, frazema tarkibida ko'chaytiruvchi vositalar ko'p qo'llansa, ekspressivlik darajasi shunchalik ortiq bo'ladi. Lekin hamma frazeologizmlar ham rang-barang ko'rinishda qo'llanavermaydi. Frazeologizm larning ko'pchiligi ma'lum bir qat'iy formada «qotib qolgan» bo'ladi, ularning bu xil tiplari o'ziga xos tabiati tufayli tarkibida biror bir o'zgarishning sodir bo'lishiga yo'l bermaydi: tomdan tarasha tushganday, chuchvarani xom sanabsan, xom sut emgan banda, jonini jabborga berib, o'laman sattor kabi.

Yuqorida ko'rganimiz ekspressivlikning bir frazema doirasida darajalapish hodisasini inson xarakteri va psixofiziologik

holatiga nisbatan qo'llanadigan frazeologizmlarda ko'rish mumkin: suyakdan o'tmoq - suyak-suyakdan o'tmok - suyak-suyakdan o'tib ketmoq; jon(i)dan o'tmoq - jon-jonidan o'tmok - jon-jonidan o'tib ketmoq; tinkani quritmoq, tinka - tinka madorini kuritmoq - tinka madorini quritib yubormoq; yuragi yorilmoq - yuragi tare yorilmoq; uchiga chiqqan - uchchiga chiqqan; esi chiqmoq - zsxonasi chikdb ketmoq; chehrasi ochilmoq - chehrasi yarqiramoq - chehrasi yarqirab ketmoq va boshqalar.

Frazeologizmlarning ayrimlarda ekspressivlik xususiyati doimiy xarakterda bo'lsa, ba'zilarida bunday xususiyat nisbiy xarakterda bo'ladi. Ekspressivlik xususiyatining doimiyligi hamda

bunday ma'nolarning kuchli rang-barangliligi jihatidan ayrim frazeologizmlar boshqalaridan ajralib turadi. Frazeologizmlarning bu xususiyati bilan shu xarakterlanadiki, ular ifodalagan ma'no komponentlarining ma'nolaridan kelib chiqmaydi, komponentlari orasidagi grammatik bog'lanish «o'lgan» bo'ladi, tarkibida qancha so'z bo'lishidan qat'iy nazar yaxlitligicha bir butun ma'no ifodalaydi¹. Binobarin ular nominativ va qo'shimcha ma'nolarning ajralmas bir ligi dan iboratdir. SHu tufayli bu frazeologizmlardan anglashilgan ma'no ko'p kirrali va ayni naytda ta'sirchandır,

Masalaga boshqa tomondan yondasheak, ularni mana bunday ta'riflash mumkin: frazeologizmlar voqea, hodisa, belgilarning inson ongiga kuchli ta'sir qilishi, shu kuchli ta'sir natijasini nutqda to'laligicha, borligicha ifodalash - umuman fikrning ta'sirchanligiga erishish maqsadida zamin yaratilgan til hodisasidir.

¹ Qarang: Hozirgi zamon uzbek tili. Toshkent, 1957.

SHunday qilib, bu tip frazeologizm larning ekspressiv ligi xususi doimiydir. Agar ekspressivlik ifodalashning boshka usullarida qo'shimcha vositalar talab qdinsa, bu xil frazeologik. iboralar bunday vositalarsiz xam, ayniqsa, konteksdan tashqarida ham ekspressivlik xususiyatini saklay oladi. Ular nutq jarayonida tuzilmaydi, balki avvaldan tayyor material sifatida yaxlitligicha ishlatilaveradi. Misollar, YUr endi xudoga aytganiig bor ekan, xumpar. Tegirmondan butun chikding, oshig'ing olchi. Asad aka, qovog'ingizdan qor yog'ib turibdi.

Ayrim frazeologazmlar tarkibidagi so'zlar umumlashgan Kuchma ma'no asosida kuril gan bo'ladi, ya'ni ular ifodalaydigan ma'no zaminida metaforik asos yotadi. Mana shu xususiyati ularga ikki. xil semantik planda qarashga sabab bo'ladi. Buning birinchisi uyushmaning to'g'ri Ma'nosi bo'lsa, ikkinchisi undan kelib ch i kadi gai figu ral ma'nosidir.

Uyushmadagi soʻzlar oʻz maʼnolari bilan qatnashgan boʻlsa, oddiy grammatik uyushma-neytral fikr ifodalash vositasi sifatida xizmat kildadi. Bunday uyushmalar frazeologik birlik sifatida boʻlganda ham oʻzining asl maʼnosini eslatib turadi. Koʻrinadiki, bunday ushmalarning xarakterini belgilashda kontekst hal qiluvchi rol oʻynaydi. Misollar: Otam bugun borolmaydilar, bel lari ogʻriydi (soʻzlashuvdan) - Birovning ishiga bellary ogʻriydi qoʻshnimning (soʻzlashuvdan) - Men u ogʻaynilardan qoʻlimni yuvganman (soʻzlashuvdan).

Bunday frazeologizmlardan anglashilgan maʼnolar ularning toʻgʻri maʼnolaridan uncha uzoqlashgan boʻlmaydi, ular da abstraksiyaga qarab siljish tendyonsiyasi ancha kuchsiz. SHunga koʻra ular da ekspressivlik xususiyati xam kuchsiz, xatto ayrimlari nutkda cheklanmagan holda koʻllanishi tufayli mutlaqo neytral maʼno ifodalaydigan boʻlib qolgan: yaxnsh koʻrmoq (yoqtirmoq), es(i)ga kelmok, esidan chiqmotq, xabar olmoq, xabar bermoq, xushiga kelmoq kabi.

Ayrim frazeologik butunliklar oʻzining erkin uyushmasiga juda yaqin turadi. Ular erkin uyushma sifatida xam, frazema sifatida ham aynan bir xil maʼno ifodalaydi. Bu tipdagi frazeologizmlar predmet, harakat, holatning vaqt, masofa, hajm jihatidan belgisini bildirishga asoslangan boʻlib, shu maʼnolarni kuchaytirish uchun xizmat qiladi: kechani-kecha, kunduzni-kunduz demai (ishlamoq), orasida er bilan osmoncha (farq bor), koʻz ochib yumguncha (bajarmoq), kampir shaftoli eguncha (borib kelmoq), etti yasharidan etmish yasharigacha (bilmoq), etti qovun pishigʻi (bor) kabi. Bu xildagi frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati ancha kuchli. va doimiydir.

Frazeologik butunliklarning ayrimlarida abstraksiyaga tomon taraqqiyot darajasi ancha kuchlidir: qovogʻidan qor yogʻmoq, jigaridan urmoq, jonidan bezor boʻlmoq, yuragini hovuchlamoq, ikki kunda xam, ikki oyogʻini tirab olmok va boshkalar. Bu turdagi frazeologizmlarning baʼzilarida ularning kelib chiqishlariga asos narsa-manbalarida ularning u niti lib ketishi sababli abstraksiya darajasi yana xam kuchlidir: kalava(si)ning uchini yoʻqotmoq,

mum tishlamok, kul o‘z ko‘mochiga tortmoq, bo‘zchining mokisiday, oshig‘i olchi, bir cho‘qishda qochirmoq, po‘stiga somon tiqmoq, asaka (m, ng, si) ketyaptimi kabi. Bu iborolar faqat nutqning eqspressivligi uchun xizmat qiladi. Frazeologik butunliklarning bu xil lari da ham ekspressivlik darajasi kuchlidir.

Umumiy xulosalar

Hozirgi barcha fanlarda sistemaviy tadqiqotlarga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga fanlarning o'zaro munosabatini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu munosabatlarni tadqiq etish orqali fanlararo tutash muammolarni yechish uchun yo'l ochiladi. Jumladan, baho masalasi mantiqiy kategoriya sanaladi. Uning grammatik kategoriya sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatib berish uchun esa, birinchi navbatda, baho masalasini mantiq fanidagi ko'rinishlari: baho subyektivi (baho beruvchi shaxs), baho obyektivi (baholanuvchi predmet), xususiyat (predmetning qanday ekanligini ko'rsatuvchi jarayon) asos (me'yor) masalalarini ochib berish zarurdir. Bahoning ham mantiqiy, ham grammatik kategoriya sifatida yashovchanligini ta'minlovchi asoslarni tadqiq etish orqali quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Baho dastlab falsafiy ham mantiqiy jihatdan o'zaro munosabatdorlikdagi baho subyektivi, baho obyektivi, baho predikati tarzidagi formula asosida yuzaga chiqadi.

2. Baho mantiqiy va grammatik kategoriya bo'lib, o'ziga xos sistemani tashkil etadi. Baho sistemasidagi elementlar munosabatdorligi mantiqiy va lisoniy sathlar doirasida ro'yobga chiqadi.

3. Lisoniy baho obyektiv va subyektiv turlarga bo'linadi. Obyektiv bahoga kishilik jamiyati tomonidan me'yor (o'lchov) qilib olingan holat asos qilib olinsa, subyektiv bahoning yuzaga chiqishi baho beruvchi shaxsning turli xususiyatlariga bog'liq tarzda amalga oshiriladi. Har qanday obyektiv baho nutqiy jarayonda subyektiv bahoga aylanadi.

4. Subyektiv baho so'zlovchi va tinglovchining obyektiv olam tasavvuri asosida yuzaga chiqadi.

Subyektiv baho lingvistik jihatdan fonetik, leksik, morfologik, sintaktik hamda paralingvistik vositalar asosida ifodalanadi.

5. O'zbek tilida baho ifodalash uchun xoslangan lisoniy birliklar bilan birga, mazmuniy tuzilishning chegarasida baho semasiga ega bo'lgan lisoniy birliklar mavjud bo'lib, ulardan birinchisi til sathiga, ikkinchisi esa nutq sathiga daxldor.

6. Leksik birlik mazmunini tashkil qiluvchi denotativ va konnotativ ma'nolardagi baho mohiyatining ochib berilishi mentalitet, geografik muhit, insonning yashash tarzi, jinsi, yoshi, urf-odatlar, nutq soʻzlanayotgan vaqt, joy kabi bir qancha holatlar bilan bogʻliqdir.

7. Baho verbal vositalardan tashqari noverbal vositalar orqali ham yuzaga chiqadi.

8. Har qanday bahoda oʻziga xos qiymat (yaxshilik va yomonlik, haqiqat va sarob, goʻzallik va manfurlik, tasdiq va inkor, toʻgʻri yoki notoʻgʻri) ifodalanadi.

9. Baho til va nutq dialektikasini oʻzida namoyon qiladi. Til sathiga mansub obyektiv baho nutqda subyektiv baho sifatida voqelanadi.

10. Baho leksemaning denotativ maʼnosida ham, konnotativ maʼnosida ham mavjud boʻladi. Bahoning denotat tarkibida boʻlishi obyektiv bahoni yuzaga keltiradi. Konnotativ maʼnoda yuzaga kelgan baho subyektiv bahoni tashkil etadi.

11. Leksema alohida bir sistema boʻlganidek, uning mazmuniy strukturasi ham sistemani tashkil etadi. Mazmun strukturasi denotativ, konnotativ, signifikativ, pragmatik, emotiv va hokazo semalar qatorida baho semasi ham oʻrin egallaydi.

12. Har qanday baho subyektiv ekstralingvistik faktorlar bilan bogʻliqdir. Mentalitet, geografik muhit, yashash tarzi, jinsi, yoshi, kasbi, urf-odati, nutq soʻzlanayotgan vaqt, joy, bilim koʻnikmalari kabilar ana shunday ekstralingvistik omillar sanaladi.

13. Lisoniy baho bilan mantiqiy baho har doim ham toʻgʻri kelavermaydi. Shuning uchun bahoning bunday mutanosibligini pragmatik jihatdan ochib berish toʻgʻri xulosa chiqarishga olib keladi.

14. Shaxs xususiyatini ifodalash turli xil vositalar asosida yuzaga chiqadi. Bahoning eng koʻp tarqalgani bu leksik birliklar orqali ifodalanishi hisoblanadi.

Shaxs bahosini ifodalash barcha mustaqil soʻz turkumlarida mavjud boʻlib, baho oʻziga xos mantiqiy qurshov asosida yuzaga chiqadi.

Shaxs bahosini ifodalovchi ot leksemalar ko`pincha kishilarning tana a'zolari nomi, jinsi, mehnat faoliyati, dunyoqarashi, diniy e'tiqodi, yashash tarzi bilan bog`liq holda baho ifodalaydi.

15. Sifat leksemalarning barchasi muayyan bahoni tushunish, ko`pincha, pragmatik jihatdan bo`ladi. Agar sifat leksemalar takror qo`llansa, baho yana ham kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Каримов И.А. Юксак маънавият энгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”, 2008. – 87 б.
2. Каримов И. А. Жаҳон молиявий иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари. – Тошкент: “Маънавият”, 2009. – 18 б.
3. Арутюнова А.Д. Предложение и его смысл. – М, 1975.
4. Алисова Т.Б. Очерки синтаксиса современного итальянского языка. – М., 1971.
5. Арутюнова Н.Д. Об объекта общей оценки вопросу языкознания. 1985. – № 3 – С 13-14.
6. Арутюнова Н.Д. Об объекта общей оценки. Вопросы языкознания. 1985 – № 3 – С -13.
7. Виноградов В.В. О категории модальности и модальных слов в русском языке. – М., 1961. – С. 310.
8. Виноградов В.В. Русский язык. – М – Л., 1947. – С. 425.
9. Вольф Е.М. Посесивные конструкции со, “скрытым” предикатом. – М., 1972.
10. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М: Наука 1985.
11. Вольф Е.М. Роль субъекта в оценочных структурах. Лишба литература молдовянка. – 1979. В.
12. Гак В. Г. К проблеме синтаксической семантике. М., 1969.
13. Ивин А.А. Основы логики оценок. М: Изд-ва МГУ, 1970 – С -5.
14. Каунельсон С. Д. Типология языка и речевое мышление. Я., 1972.
15. Капанидзе Л. А., Красильникова Е. В. Роль жеста в разговорной речи Русская разговорная речь.
16. Саратов, 1970 г.
17. Колшанский В.Г. Паралингвистика. Москва: Наука, 1974, 7-бет.
18. Колшанский Г.В. Паралингвистика. Москва: Наука, 1974, 59-бет.

19. Кедрова Е. И. Вербальное обозначение жестов персонажей при передаче прямой речи в художественном тексте. Ростов-Дон, 1980, АКД. 4-бет.
20. Маҳмудов Н. Нутқ маданияти.
21. Новиков А. А. Семантика русского языка. – М., Высшая школа, 1982.
22. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Т, 1991. –Б 80.
23. Николаева М. Т. Семантика акцентного выделения. М, 1982. – С. 47.
24. Соссюр Ф.де. Труды по общему языкознанию, - М: Прогресс, 1993. – С. -19.
25. Саидхонов М. М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши. Филол. фанлар номзоди. – дисс. – Т., 1993.
26. Хидикель С.С. Кашель Г.Г. Природа и характер языковых оценок Л Лексические и грамматические компоненты в семантике языкового знака. Воронеж, 1983. – С. 14.
27. Ҳожиёв А. Модал ёки субъектив баҳо формалари ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т 1978 1 сон.
28. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясаиши тизими – Т. Ўқитувчи, 2007.
29. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари – Т. Фан 1980.
30. Қамбаров Ф. Баҳо грамматик категория сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998.3 сон. – Б. 62-63.
31. Қамбаров Ф. Баҳо ифодаловчи лексик воситалар // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2004 – 2 сон. – Б. 34-37.
32. Қамбаров Ф. Нутқий феълларда баҳо // Ўзбек филологиясининг долзаб масалалари. Республика илмий назарий анжумани. – Наманган, 2006 – 247-249 б.

Internet saytlari:

33. www.ziyonet.uz
34. www.academy.uz
35. www.natlib.uz
36. www.kutubxona.uz
37. www.navoiy-uni.uz